

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” TA‘LIM YO‘NALISHI

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“MADANIY HORDIQ IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATNING
OBYEKTI SIFATIDA ”**

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” kafedrasining _____ -
sonli yig‘ilish bayonnomasi

“ _____ ” 2014 yil

Kafedra mudiri _____

X.Shodiyev

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat”
ta‘lim yo‘nalishi IV-kurs bitiruvchisi

Tojiqulov Zayniddin
Muhammadqulovich

Ilmiy raxbar: f.f.d., professor
S.S.To‘ychiyeva

Toshkent-2014 yil

MUNDARIJA

Kirish	2
I BOB Ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda madaniy hordiqning o‘rni	
1.1. Halqimizning an’anaviy dam olish usullari.....	6
1.2. Madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etish uslublari.....	26
II BOB Ijtimoiy-madaniy faoliyatning ilmiy nazariy asoslari.....	
2.1. «Ijtimoiy madaniy faoliyat» tushunchasi va uning mohiyati	30
2.2. Ijtimoiy madaniy faoliyatning shakllari va vositalari.....	32
Xulosa.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	56

KIRISH

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga ma'naviy boylik sifatida o'tib kelayotgan dam olish va ko'ngil ochish usullari mavjud. Dam olish va ko'ngil ochishning bir necha xillarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Jumladan, ko'ngil yozish tadbirlari. Bu tadbirlarda asosan mehnat faoliyatidan keyingi insonning ham jismoniy, ham ruhiy charchog'ini chiqarish maqsad qilib qo'yiladi. Bularga: choyxo'rlik, oshxo'rlik, xarifona (xarfana, xalfana), sayr, sayil – dala sayli, tog' sayli, bog' sayli, gul sayli, suv sayli, do'stlar davrasi, suhbat va shu kabilar kiradi. Bunday tadbirlarda inson ko'ngli yozilib, charchoqlarini ma'lum darajada unutadi, kayfiyati ko'tariladi.

Ma'rifiy-hordiqiy tadbirlar sirasiga kiritiladigan turkum dam olish madaniyatida asosan ma'rifiy jihatga e'tibor qaratiladi. Bunda maxsus bilim, tajriba, mushohada kabi aqliy jarayonlar bilan bog'liq xususiyatlar talab etiladi. Bo'sh vaqtda hayot, yashash uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, tajribalarnidostonxonlik, ertakxonlik, lofchilik, topishmoqtoparchilik, maqolbilarlik, mushoira, bahri-bayt, munozara, aytishuv, masalchilik, kitobxonlik, g'azalxonlik, ruboiyxonlik, qasidaxonlik, chistonxonlik va shu kabi ma'rifiy tadbirlar orqali olish mumkin.

Bo'sh vaqtda sevimli ijodiy mashg'ulot bilan shug'ullanish an'analari ham mavjud. O'zbek xalq an'anaviy ijodiy dam olish turlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- 1.Og'zaki ijod – baxshi-shoirlik, askiyachilik, ertakchilik, lofchilik kabilar.
- 2.Musiqa - qo'shiq - musiqa ijro qilish, terma, qo'shiq, Alla, yalla, laparlar ijro etish.
3. Teatr-tomoshaviy ijod – masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik, afsungarlik va hokazo.
4. Amaliy san'at – tikish, to'qish, kashtachilik, kulolchilik, misgarlik, o'ymakorlik va shu kabilar.

Bayram-marosim hordig'i. Hayotdagi muhim hodisalar sanalarini nishonlash jarayonida dam olish. Bayram-marosim hordiqclarini ham o'z navbatida quyidagicha tasnif qilamiz:

1. Tabiat bilan bog'liq mavsumiy bayram-marosimlar – «Navro'z», «Sumalak bazmi», «Boychechak», «Lola sayli», «Qizil gul sayli», «Tut sayli», «Suv sayli», «Qovun sayli», «Anor sayli», «Uzum sayli», «Birinchi qor» va boshqalar.

2. Inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan marosimlar – «Suyunchi», «Ismlash», «Beshik to'yi», «Ilk qAdam», «Sunnat to'yi», «Muchal yoshi», «Nikoh to'yi», «Payg'ambar yoshi» va hokazo.

3. Diniy marosimlar – «Ro'za hayiti», «Qurbon hayiti», «Mavlud» va boshqalar.

Ijtimoiy foydali dam olish an'analariga bo'sh vaqtda odamlar uchun xayrli va foydali xizmatlar qilish – yaqin, qarindosh, ota-ona, ustozlardan xabar olish, kambag'al, yetim, kasal, qariya, ojizlarga yordam berish, to'y-ma'raka, hashar, xayriya ishlarida qatnashmoq, muqaddas joylarni ziyorat qilmoq kabilar kiradi.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida aholining madaniy ehtiyoqlarini qondirish va ularning mazmunli dam olish va xordiq chiqarishlari uchun juda katta qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan; hozirgi kunda respublikamizda 37 ta teatr, 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlari, 120 dan ortiq madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat va san'at saroylari aholining madaniy ehtiylarini qondirishga xizmat qilib kelmoqda. Ko'ngilochar va istirohat muassasalarining faoliyatini ilmiy-nazariy o'rganish va tahlil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda madaniy hordiq faoliyatini tahlil etish maqsadida bitiruv malakaviy ishining mavzusi "Madaniy hordiq ijtimoiy-madaniy faoliyatning obykti sifatida" deb nomladik va mavzuning dolzarbligini quyidagi jihatlar asosida ko'rsatishni lozim topdik.

Birinchidan, O'zbek halqining an'anaviy dam olish usullarini tarixiy rivojlanishi va madaniy dam olish bo'yicha ota-bobolarimiz tomonidan to'plangan tajribani o'rganish va tahlil etish.

Ikkinchidan, Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlarida aholining madaniy dam olishini tashkil etish va boshqarish.

Uchinchidan, Hozirgi kunda aholining ko'ngil ochish va dam olishni tashkil etish borasidagi amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mustaqillik yillarida prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida insonni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasi davlatimizning ustuvor masalalaridan biri sifatida o'rganildi. Tabiiyki ushbu ustuvor vazifani amalga oshirishda madaniy-ma'rifiy muassasalarning roli katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy sohadagi o'zgarishlar va islohotlarni tahlil qilish ishlarini U.Qoraboyev, M.Murodov, O.Nishonovalarning ilmiy va ijodiy faoliyatlarida ko'rishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning metodologiyasini Madaniy-ma'rifiy sohada faoliyat olib borayotgan olimlarimizning ko'ngil ochish va hordiq chiqarishga doir qarashlari aks etgan asarlari, O'zbekiston Respublikasining bu boradagi milliy qonunchiligi, qonunosti hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining madaniyat va san'atga doir qarorlari, O'zbekiston respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyruqlari, Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat va milliy g'oya masalalari yoritilgan asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsad: Ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda madaniy hordiq faoliyatini o'rganish va tahlil qilish.

Aholining ko'ngil ochish va dam olish madaniyatini yuksaltirish.

Ko'ngil ochish va dam olishni mazmunli o'tkazish bo'yicha madaniy dam olish tadbirlarni tashkil etishga uslubiy yordam berish.

Tadqiqotning vazifalari:

-O'zbekistonning madaniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar mazmunini odamlar ijtimoiy hayotidan mustahkam o'rin olishiga ko'maklashish;

-Aholining mazmunli dam olish va xordiq chiqarish madaniyatini yuksaltirish;

-Barkamol avlodni tarbiyalashga faol ko'maklashish,

Tadqiqotning obekti.Ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda madaniy hordiq faoliyatini tashkil etishni ilmiy-nazariy tahlil etish.

Tadqiqotning predmeti. Dam olish va ko'ngil ochishning mohiyatini ochib berish, xalq bayramlari va sayllarida dam olishni tashkil etish, O'zbekistonda istirohat va ko'ngilochar muassasalar tizimini boshqarishning huquqiy asoslari tadqiqotning predmeti etib belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB Ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda madaniy hordiqning o‘rni.

1.1. Halqimizning an’anaviy dam olish usullari.

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga ma’naviy boylik sifatida o‘tib kelayotgan an’anaviy dam olish usullari mavjud. An’anaviy dam olishning bir necha xillarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Jumladan, ko‘ngil yozish tadbirlari. Bu tadbirlarda asosan mehnat faoliyatidan keyingi insonning ham jismoniy, ham ruhiy charchog‘ini chiqarish maqsad qilib qo‘yiladi. Bularga: choyxo‘rlik, oshxo‘rlik, xarifona (xarfana, xalfana), sayr, sayil – dala sayli, tog‘ sayli, bog‘ sayli, gul sayli, suv sayli, do‘stlar davrasi, suhbat va shu kabilar kiradi. Bunday tadbirlarda inson ko‘ngli yozilib, charchoqlarini ma’lum darajada unutadi, kayfiyati ko‘tariladi. Ma’rifiy-hordiqiy tadbirlar sirasiga kiritiladigan turkum dam olish madaniyatida asosan ma’rifiy jihatga e’tibor qaratiladi. Bunda maxsus bilim, tajriba, mushohada kabi aqliy jarayonlar bilan bog‘liq xususiyatlar talab etiladi. Bo‘sh vaqtda hayot, yashash uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, tajribalarni dostonxonlik, ertakxonlik, lofchilik, topishmoqtoparchilik, maqolbilarlik, mushoira, bahri-bayt, munozara, aytishuv, masalchilik, kitobxonlik, g‘azalxonlik, ruboiyxonlik, qasidaxonlik, chistonxonlik va shu kabi ma’rifiy tadbirlar orqali olish mumkin.

Bo‘sh vaqtda sevimli ijodiy mashg‘ulot bilan shug‘ullanish an‘analari ham mavjud. O‘zbek xalq an’anaviy ijodiy dam olish turlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Og‘zaki ijod – baxshi-shoirlik, askiyachilik, ertakchilik, lofchilik kabilar.
2. Musiqa - qo‘shiq - musiqa ijro qilish, terma, qo‘shiq, Alla, yalla, laparlar ijro etish.
3. Teatr-tomoshaviy ijod – masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, afsungarlik va hokazo.
4. Amaliy san‘at – tikish, to‘qish, kashtachilik, kulolchilik, misgarlik, o‘ymakorlik va shu kabilar.

Bayram-marosim hordig‘i. Hayotdagi muhim hodisalar sanalarini nishonlash

jarayonida dam olish. Bayram-marosim hordiqларini ham o'z navbatida quyidagicha tasnif qilamiz:

1. Tabiat bilan bog'liq mavsumiy bayram-marosimlar – «Navro'z», «Sumalak bazmi», «Boychechak», «Lola sayli», «Qizil gul sayli», «Tut sayli», «Suv sayli», «Qovun sayli», «Anor sayli», «Uzum sayli», «Birinchi qor» va boshqalar.

2. Inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan marosimlar – «Suyunchi», «Ismlash», «Beshik to'yi», «Ilk qAdam», «Sunnat to'yi», «Muchal yoshi», «Nikoh to'yi», «Payg'ambar yoshi» va hokazo.

3. Diniy marosimlar – «Ro'za hayiti», «Qurbon hayiti», «Mavlud» va boshqalar.

Ijtimoiy foydali dam olish an'analariga bo'sh vaqtda odamlar uchun xayrli va foydali xizmatlar qilish – yaqin, qarindosh, ota-ona, ustozlardan xabar olish, kambag'al, yetim, kasal, qariya, ojizlarga yordam berish, to'y-ma'raka, hashar, xayriya ishlarida qatnashmoq, muqaddas joylarni ziyorat qilmoq kabilar kiradi.

O'zbek xalqining turli tabaqalari, guruhları orasida ham o'ziga xos dam olish an'analari bo'lib, bolalar, qizlar, erkaklar, ayollar, yoshi ulug'larning madaniy dam olish shakllari bir-biridan farq qiladi.

Dam olish shakllarining turi, ma'rifiy, ijodiy dam olib, hordiq chiqarish maskanlari, usullari qanchalik ko'p bo'lsa, uning manbalari, uslublari, yo'l-yo'riqlari ham shunchalik ko'p. Ularning bitta umumiy xususiyati, oliy maqsadi bor, u ham bo'lsa dam olish orqali hordiq chiqarish bilan bir qatorda ma'naviy boyish, yoshlarga o'rnak, namuna ko'rsatish yo'li bilan ularni tarbiyalash, xalqimizga munosib vorislarni voyaga yetkazish.

Ajdodlarimiz asrlar davomida:

- yosh avlodni bilimli, uquvli, ilm-ma'rifatli bo'lishi, kasb-hunar egallashi uchun sharoitlar yaratgan;

- turli qadriyatlar, rasm-rusmlar, odatlarni amalga oshirgan;

- rang-barang harakatli, aqlni o'stirish o'yinlarini o'ylab topgan, hayotga joriy etgan, bola tarbiyasida «Sog' tanda – sog'lom aql» shioriga amal qilgan;

- sogʻlik, salomatlikning yoshlikdan qadriga yetish, vujud sogʻligi, aql-tafakkur sogʻligi, tiniqligi, turmush, oila, muhit sogʻlomligi haqida qaygʻurmoq lozim. Bunda albatta, dam olib hordiq chiqarish, maʼrifiy-ijodiy, aqliy-ruhiy charchoqlik, toliqishning oldini olishga ham alohida ahamiyat bergan.

Salomatlikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash, saqlab rivojlantirish, kamolga yetkazish bilan bogʻliq behisob udumlarimiz, odatlarimiz orasida maʼrifiy-ijodiy hordiq chiqarish, dam olish alohida oʻrin tutishi bejiz emas. Bular:

1.Qadim-qadimlardan ota-bobolarimiz, momo-onaxonlarimiz farzandlarining pokiza boʻlishlariga alohida eʼtibor berar ekanlar, ozodalik va dam olishga eng asosiy diqqatni qaratganlar.

Maʼrifiy-ijodiy dam oldirish orqali (uning turlari, tizimlari, usullari juda koʻp) yoshlarda, xususan, bolalarda xushdamlik, quvnoqlik, dil-dildan kula olishlik, yaxshi kayfiyat, vaqtichogʻlik, tetiklik, bardamlik, eng asosiysi maʼnaviy sogʻlomlik ruhida tarbiyalashdek omillarni qoʻllaganlar. Demak, sogʻlom, quvnoq, tetik tanda ruhiy sogʻlik boʻlishini esdan chiqarmagan holda ish tutganlar.

2. Hazil-mutoyiba, askiya, lutf, qiziqchilik, xirgoyi, shirin soʻz, shirin muomala, chiroyli, yoqimli soʻzlarni qoʻllash, amalga oshirish orqali bolada maʼrifiy-ijodiy dam olish, hordiq chiqarishni, demak jismoniy va aqliy sogʻlom boʻlib oʻsishni taʼminlaganlar. Maʼrifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarishning uddasidan chiqa olganlar, uni toʻgʻri, maqsadga muvofiq tashkil eta olganlarida sogʻlom avlodning yetishib chiqishi va yuksak fazilatlarga ega boʻlishi tajribalar sinovidan oʻtgan haqiqat ekanligi barchaga ayon. Xalqimiz: «Kuling, kulish umrni uzaytiradi», «Yaxshi kayfiyat – yaxshilikka olib boradi, yomon kayfiyat yomonlikka olib boradi»,-deb bejiz aytmagan.

3. Xalqimiy maʼrifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish orqali yosh avlodni turli xil asabbuzarlikdan, arzir-arzimas gap soʻzlar, mayda-chuyda ishlardan jigʻibiyron boʻlish, dilxunlikka berilish, ruhan ezilish kabi inson umrini qisqartiruvchi holatlarga yoʻl qoʻymagan. Buning davosi ham maʼrifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish boʻlgan. Bunda xalq ogʻzaki ijodi namunalari, dostonlar aytish, qoʻshiqlar kuylash, ertaklar aytish, maqollar, hikmatli soʻzlar,

topishmoqlar, tez aytish, bolalar folklorining xilma-xil janrlaridan foydalanish, xalq milliy o'yinlarini o'ynatish, adabiyot, san'at, tarix va boshqalarni qo'llay bilish orqali, badiiy so'zni ishga solish, yaxshi ishlarni amalga oshirish bilan bajarilgan.

Xalqimizning odaticha, ko'pchilikning tasdiqlashicha, kulgu shifobaxsh chashmadir. Kulgu – sog'lik, yaxshi kayfiyat, tetiklik va bardamlik, jismoniy bardam-baquvvatlik, aqliy-ruhiy tetiklik, hayotga, kelajakka umid-orzu, yashashdan qanoat hosil qilish, totuvlik, ishonch, e'tiqod omilidir. Kulgu nafaqat sog'lom avlod taqdirida, balki ijtimoiy faoliyatda, ma'naviy- ijodiy hordiq chiqarib dam olish, ruhni tetiklashtirib, hayotga muhabbatni oshirish, yashash istagini kuchaytirishdir. Ha, kulgu, yaxshi kayfiyat oqilona tashkil etilgan ma'rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish – har qanday odamni yashartiradi, umriga umr qo'shadi, ishda unumni oshiradi, oila, jamiyatda yaxshi muhit yaratadi. Uning yana bir xususiyati, jahlni tushiradi, yomon kayfiyat, holat, vaziyatni yaxshilik tomon buradi. Yomon kayfiyat, jahl esa – inson umrini egovlaydi, bevaqt xazon bo'lishiga olib keladi. Kulgu, lutf, yaxshi kayfiyatni ta'minlovchi ma'rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam olishning ijtimoiy ahamiyati, umrimiz uzayishi, sog'lom avlod yetkazishdagi hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ahamiyati ham ana shunda.

4. Xalqimizda «Sayohat – tanga rohat», «Yaxshi dam mehnatga hamdam», «Bir nafaslik rohat Sulaymon taxtidan afzal», «Yaxshi dam olding – ishingga unum solding» kabi o'nlab maqollar, iboralar, ko'pdan-ko'p afsona va rivoyatlar va boshqalarda dam olib, hordiq chiqarishning kishi salomatligi, ruhan tetikligi, aqliy va jismoniy kamoloti borasidagi ahamiyati teran ifodalangan.

Shunday qilib, dam olib, hordiq chiqarishning foydali tomonlari xalqona odobnomaning sahifalarida behisob. Sog'lom avlod, komil avlod tarbiyasida dam olib, hordiq chiqarishning, ya'ni ma'rifiy-madaniy hordiqning ko'rinishlari taxminan shunday:

1. Oilada ma'rifiy-ijodiy hordiq chiqarib dam olish. Buning usullari, tizimlari behisob.

2. Jamoa joylarida ma'rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish. Buning ham o'ziga xos yo'llari, uslublari juda ko'p.

3. Sayohatlar, turizm yo'llari bilan ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.

4. Yakka tartibda, jamoa bo'lib ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.

5. Ziyorat joylarga, qadimiy maskanlar – ko'hna shahar qoldiqlari, qal'alar, qo'rg'onlar qadamjolarga borib dam olib hordiq chiqarish.

6. Tabiat qo'yniga – tog'u toshlar, qir-adirlar bag'riga, soylar, ko'llar, daryolar bo'ylarida, so'lim go'shalar va boshqa joylarda ma'rifiy-ijodiy dam olish va hordiq chiqarish.

7. Madaniyat va istirohat bog'larida, hayvonot bog'larida, botanika bog'lari-yu san'at, adabiyot, tarix, etnografiya, tabiat, sport, tibbiyot, turli fanlar, kasb-hunarga oid muzeylar, ko'rgazmalar, anjumanlarda ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish va hokazo.

An'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqeadir. Chunki, bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan ko'zgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi. Barcha davrlarda bayramlarga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ularning darajasi turlicha bo'lgan. Masalan, SHo'rolar davlati o'z davrigacha mavjud bo'lgan barcha azaliy bayramlarni inkor etib, Yangi sovet bayramlarini hayotga joriy etdi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, O'zbekiston rahbariyati eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov farmonlari asosida «Navro'z», «Ro'za hayit», «Qurbon hayit»lar rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan ikki bayram – «Mustaqillik kuni» va «Konstitutsiya kuni» joriy etildi. O'qituvchi va murabbiylar kuni ham alohida bayram sifatida rasman qabul qilindi. O'z navbatida O'zbekiston rahbariyati SHo'rolar davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni ta'qiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni

targ'ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Bayramlar qadim davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Bayram insoniyatning o'zi bosib o'tgan yo'llarni chuqur anglashi, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlardan mag'rurlanishi, ertangi kunga umid bilan qarashiga yordam beradi.

Bayramlarni nishonlamaydigan shaxs, oila yoki jamoani topish qiyin. Har bir millat va davlatning ham o'z bayramlari bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklarning ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, avloddan – avlodga o'tib, takomillashib, bebaho merosga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi tarixning «sovuq shamollari» - bosqinchilik siyosati va turli hukmdorlar tazyiqiga uchrab, nohaq yo'qotilgan, ayrimlari esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilatlaridan ajralsa-da, butunlay yo'qolib ketmagan. Ba'zilar esa xalq hayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Arxeologik qazilmalarda topilgan osori atiqalarda, qadimgi qo'lyozmalar, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ijodi namunalarida hozirgacha saqlanib qolgan ko'hna odatlarning aks etganligini ko'ramiz.

Bayramlar vaqtning monotonligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan «shodlik surati» baxsh etadi. Shu sababli qadimdan bayramlar vaqtning o'ziga xos o'lchovi hisoblangan.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida talabga javob bermay qolgan an'ana va bayramlar asta-sekin unutila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo'lgan an'analar taraqqiy etadi. Masalan, Navro'z, Qovun sayli, Lola sayli, Hosil to'yi, Sumalak sayli va hokazo bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda.

Navro'zni bayram qilish O'rta Sharq va O'rta Osiyoda qadimda tarkib topgan an'anadir. U insonning juda qadimdan shakllana boshlagan ma'lum udum,

urf-odatlar, kundalik turmush ehtiyojlari, atrof muhit, tabiat omillari bilan munosabatlari zaminida vujudga kelgan. Asrlar o'tishi bilan bu urf odatlar mamlakatlar, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi zaminida keng yoyila borgan, mazmunan boyigan hamda ma'lum o'lkalar doirasida tarqalib mustahkam an'anaga aylangan.

Ko'hna va navqiron Navro'z bayrami O'rta asrlarda O'rta Osiyoning turli joylarida o'ziga xos shaklda uyushtirilgan. Uni nishonlash vaqti uch kundan tortib to o'n besh kungacha cho'zilgan. Masalan, Xorazmda Navro'zdan oldin joylarda maxsus yig'in bo'lib, unda bayram raisi tayinlangan, tantanalar, tomoshalar, sayillar o'tkazish tartibi haqida so'z borgan.

Navro'z bozor qoshidagi joylarda, katta maydonlarda, shahar chekkalaridagi sayilgohlarda uyushtirilgan. Odatda, bayramning birinchi kuni quyidagicha o'tgan: ertalab bayram boshlangandan keyin dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasida sozandalar, navozandalar va boshqa san'atkorlarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar uyushtirilgan.

Navro'z bilan bog'liq tomosha kun sayin avjga chiqqan. Har xil musobaqalar, ko'pkari(uloq), poyga bayramning ko'rki bo'lgan.

Navro'z kunlari katta bozorlar (savdo-sotiqalar) tashkil qilingan va shirin taomlar tayyorlangan. Odatdagi ovqatlardan tashqari do'lma, yalpiz, ko'k piyoz va boshqa ko'katlar solingan taxsus taomlar pishirilgan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rin tutgan.

«Sumalak sayli» (yoki «Sumalak bazmi») Navro'zning «shohona taomi» - sumalak tayyorlash, sumalakxo'rlikka bahishlangan marosimdir.

Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, uni pishirish jarayonida suhbatda bo'lishgan, hikoyalar, ertaklar va latifalar aytishgan. Vaqti kelganda o'yin-kulgi qilishgan. Sumalak tayyor bo'lgach, uni pishirishda qatnashganlar va mahalla ahli sumalakxo'rlik qilish uchun «sumalak sayli»ga taklif etilganlar. Sumalak sayli ishtirokchilari childirma chalib raqsga tushishgan, qo'shiqlar aytib, xursandchilik o'ilishgan. Sayil hazil-mutoyiba, o'yin-kungi bilan o'tgan. Asrlar osha nishonlanib kelayotgan «sumalak sayli» hozirgi kunda ham kishilarni o'zaro hamkorlik va

birdamlikka chorlaydi.

Davlat arboblari «Navroʻz» bayramini taʼqiqlashga koʻp urinishgan. Bu bayram kishilarning ozodlikka intilishini kuchaytirishi, ularni birlashtirishi mumkin, deb xavotir olishgan. Shuning uchun «Navroʻz» istilochilar saroylarida, amaldorlar va din rahnamolari davrlarida rasmiy bayram sifatida nishonlanmagan. Lekin bu tazyiqqa qaramay «Navroʻz» xalq orasida bayram qilinavergan. Shu boisdan ayrim shohlar va amirlar keyingi asrlarda oʻzini xalqparvar koʻrsatish maqsadida «Navroʻz»ni bayram sifatida nishonlashga majbur boʻlishgan.

Oʻrta asrlarda «Navroʻz»ning falsafiy-badiiy mazmuni yanada kengaygan. Bu bayram haqida oʻdavrnin deyarli barcha allomalari oʻz asarlarida ijobiy mulohaza bildirishgan. Oʻrta asrlarda «Navroʻz»ning xalq turmushi va maʼnaviy hayotidagi mavqei, fazilati va xosiyati haqida qomusiy bilim egalari Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Mahmud Qoshgʻariy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy oʻz asarlarida yozishgan.

Beruniy «Navroʻz – olamning boshlanishi» desa, Firdavsiy «Navroʻz – bayramlar shohi» deydi. Navoiy odamlarga istak bildirib: «Har tuning qadr oʻlubon, har kunning oʻlsun Navroʻz» deydi. Qadimda yaratilgan yozma yodgorliklarda, jumladan, At-Tabariyning «Taʼrix», Al-Masʼudiyning «Muruj az-zahab», Hakim Termiziynin «Solnoma», Narshaxiynin «Buxoro tarixi», Abu Rayhon Beruniynin «Al-osor al-boqiya» va «Geodeziya», Abul Qosim Firdavsiynin «Shohnoma», Umar Xayyomnin «Navroʻznoma», Abul Fazl Bayhaqiynin «Tarixi Masʼudiy» asarlarida Navroʻz uygʻonish, yuksalish, goʻzallik bayrami sifatida ulugʻlangan. Navroʻzning kelib chiqishi haqida koʻplab afsonalar va asotirlar mavjud.

Bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalarga qaraganda, yilboshi – Navroʻz bayramini oʻtkazish anʼanasi miloddan avvalgi IV asrlardan eʼtiboran keng tarqalgani maʼlum boʻladi. YAʼni, bu qadimiy bayramning tarixi yigirma toʻrt asrdan ortiqroq vaqtga egadir.

Qadimiy Navroʻz odatlari ichida, odamlarning hayotimiz shirin boʻlsin degan maʼnoda bir-biriga shakar va shirinliklar hadya etishi; gullar taqdim qilishi,

bir-biriga suv sepishi kabi o'yinlar keng tarqalgan. Odatlar zahirida xalqning Yangi yil hosildorlik, mo'l-ko'chilik yili bo'lsin, degan ezgu orzusi yotadi.

Quyoshning Hamal burchiga kirishi, kecha bilan kunduzning barobar kelishi yil boshi hisoblangan. «Yangi kun» nomi bilan atalgan Navro'z bayrami kuni mahbuslarni ozod qilish an'anasi ham bo'lgan. Shu kuni uy-joylarni tozalash, ko'kat va gullar bilan bezash, ota-ona, yaqin kishilar bilan diydorlashish, marhumlarning qabrlarini ziyorat qilish xalq orasida odat tusiga kirib qolgan.

Navro'z kuni odamlarning bir-biriga suv sepish an'anasi Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiluvchi aholi o'rtasida saqlanib qolgan. Uni nishonlash vaqti uch kundan tortib, to dalalarda ekin boshlanguncha davom etgan. Navro'zdan oldin joylarda maxsus yig'inlar bo'lib, unda bayram raisi tayinlangan, tomoshalar, sayillar, musobaqalar o'tkazish tadbirlari rejalashtirilgan. U odatda, boshlanishidan bir necha kun ilgari tayyorgarlik ko'rilgan. Navro'z bayramidan 15 kun oldin bug'doy yoki arpa undirishga qo'yilgan va uning maysasidan bayram kunlari sumalak qilingan. Yoshlar, qariyalar kechasi bilan uxlamasdan ertak va hikoyalar aytishib, o'yin-kulgu bilan yaxshi niyatlar tilab, sumalakni kavlab, kutib olishgan.

Navro'z – dala ishlari mavsumining boshlanishiga bag'ishlangan bayram. Navro'zning so'nggi kunida dalaga qo'sh chiqarish va yerga urug' qadash marosimi o'tkazilgan. Bu marosim har joyda turlicha: «Ekish sayli», «Qo'sh oshi», «Qo'sh chiqarish» («Qo'sh-moy») deb nomlangan. Mazkur an'anadan ijobiy foydalanish natijasida hozirgi davrda respublikamizning ko'p joylarida «Chigit qadash» kabi marosimning yangi zamonaviy shakli vujudga kelgan.

«Navro'z» zamonga mos ravishda mazmunan boyib, shaklan rivojlanib bordi. Respublikaning ilg'or olimlari, yozuvchilari va madaniyat xodimlari Navro'z qadimdan davom etib kelayotgan haqiqiy xalq bayrami ekanligini, uning mohiyati tabiat qonuniyatlari bilan bog'liqligi va uni eng yaxshi an'analar asosida taraqqiy ettirish lozimligini ta'kidlaydilar. Buning natijasida Navro'z haqiqiy xalq bayrami sifatida yanada keng nishonlana boshladi. Bu an'ana hozirgi kunda o'zining asosiy mohiyatini saqlagan holda yangi mazmun va zamonaviy jihatlar

bilan boyib bormoqda Chunonchi, hamma yerda Navro‘zning ramziy obrazlarini gavdalandiruvchi «Bahorxonim» bayramning asosiy qahramoni hisoblanadi. Odatda Navro‘z Bahorxonimning o‘z dugonalari bilan bezatilgan ochiq mashinada aholi yashaydigan ko‘chalarni karnay-surnay sadolari jo‘rligida aylanishi bilan boshlanadi. Bahorxonim qishloq yoki mahallalarning markaziy maydonlarida to‘xtab, o‘lkaga bahor kirib kelgani bilan aholini tabriklaydi. Hammani Navro‘z bayrami tantanalariga taklif qiladi, shuningdek, joylarda o‘yin-kulgilar uyushtiriladi.

Bayramning ikkinchi qismi madaniyat va istirohat bog‘larida bayram qatnashchilarining Bahorjon, Paxtaoy va uning dugonalarini tantanali kutib olishi bilan boshlanadi. So‘ng ular bezatilgan minbarga taklif etiladilar. Bahorxonim bayram qatnashchilariga shodlik, do‘stlik va obodonchilikka oid uchta shart aytadi. So‘zining nihoyasida: «Turarjoyimiz yashil, obod, go‘zal va ko‘rkam bo‘lishi uchun har bir kishi bittadan daraxt ko‘chati o‘tqazsin!» deb barchani ko‘chat ekishga chorlaydi va o‘zi birinchilar qatorida belgilangan joyga nihol ekadi. So‘ngra boshqalar ham navbati bilan turli xil daraxtlar o‘tqazadilar.

Tantananing uchinchi qismida bahor, Yangi hosil yili boshlanishiga bag‘ishlangan tematik programma, ommaviy tomosha yoki teatrlashtirilgan konsert namoyish qilinadi. Bazm uyushtiriladi. Buning uchun sahna bayramga mos qilib bezatiladi va uning tevaragiga stol-stullar qo‘yiladi.

Bayramning teatrlashtirilgan dasturida bahorga bag‘ishlangan o‘yinlar, mehnatkashlarni ruhlantiruvchi turli mushoiralar, quvnoq qo‘shiq va raqslar, dramatik asarlardan lavhalar, askiya va intermediyalar o‘rin oladi.

Navro‘z bayramining to‘rtinchi qismida ommaviy sayillar, mahalliy xalq o‘yinlari, sport musobaqalari (kurash, otchopar o‘yinlari, shaxmat, shashka va yarmarkalar) tashkil etiladi.

Respublikamizda nishonlanayotgan Navro‘zning umum tomonlari ko‘p bo‘lsa-da, u turli joylarda mahalliy an‘analari asosida turlicha nishonlanadi.

Xususan, Farg‘ona viloyatining ko‘pchilik qishloqlarida «Navro‘z» bayramini tashkil qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. O‘sha kuni hovlilar, uylar,

ko‘chalar tozalanadi, bezatiladi. Kechki payt esa kishilar bir-birlarinikiga mehmonga borishadi, keksalar izzat-hurmatda bo‘ladi, ota-onalar, ustozlar va tabarruk kishilardan xabar olishadi, o‘zaro arazlashgan, gina-kudurat qilganlar yarashtiriladi va hokazo. Navro‘zga bag‘ishlangan asosiy tomoshalar, sayillar, musobaqalar, ommaviy o‘yinlar va bazm uyushtiriladi.

Shahrisabzda Navro‘z g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuqori saviyada teatrlashtirilgan tarzda o‘tkaziladi. O‘rta Osiyoning buyuk allomalari Firdavsiy, Beruniy, Umay Xayyom, Navoiy, Zavqiy va Muqimiyning Navro‘z haqidagi fikrlari, misralaridan, lirik parchalardan o‘rinli foydalanilganligi uchun ham bayram yuksak g‘oyaviy-badiiy mazmun kasb etadi.

Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Jomboy va Urgut tumanlarida Navro‘z tabiat qo‘ynida, tog‘ yon bag‘irlarida uyushtirilishi ayniqsa diqqatga sazovordir.

Tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan Urgut Navro‘zi o‘zining go‘zalligi, ommaviyligi bilan diqqatni jalb etadi. An‘anaga ko‘ra, bayramning rasmiy ochilishi marosimidan keyin mushoira boshlanadi. So‘ng badiiy havaskorlik va sirk jamoalari o‘z san‘atlarini namoyish etadilar. Kun bo‘yi musiqa, sho‘x qo‘shiqlar tinmaydi. Masxarabozlar, dorbozlar va polvonlarning san‘ati yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Yigitlar milliy kurash bo‘yicha bir-birlari bilan kuch sinashadilar. Eng yaxshi chavandozlar shu yerning o‘zida – tog‘ etagida ko‘pkari chopadilar.

Forish tumanining tog‘ yon bag‘irlaridagi qishloqlarda nishonlanadigan Navro‘z xalq milliy taomlari tayyorlash san‘ati borasidagi o‘ziga xos ko‘rikka aylanib ketadi. Navro‘z bayram qilinadigan joyga har kim o‘zi havas bilan tayyorlagan taomlari bilan keladi. Navro‘z dasturxonida «shohona» taom – sumalakdan tashqari barak (ko‘k ildizdan tayyorlangan), qoqi(salati), yupqa (quymoq), go‘ja oshi, un oshi, kesgan oshi, kulchatoy, qatlama, qotirma, g‘ilmindi, shirvoz kabilarni tatib ko‘rish mumkin. Navro‘z malikasi Bahorxonim hay‘at a‘zolari bilan eng yaxshi pazandalarni aniqlab, ularni ma‘naviy taqdirlashadi.

Navro‘zning yana bir ajoyib xislati bor: uning ochilishi marosimini ko‘rish mumkin-u, ammo bayramning yopilishini sezish amri mahol, chunki u ko‘chalar

va uylarda uzoq davom etadi. Navro‘z har bir kishining qalbida bir yilga yetadigan yorqin taassurot, tetiklik qoldiradi. Navro‘z bayramidan keyin odamlar bardamlashgan va kuch-quvvatga to‘lgan holda yaxshi kayfiyat, ko‘tarinki ruh bilan ishga kirishadilar.

Ajdodlarimiz madaniy-ma‘naviy qadriyatlarining gultoji hisoblangan Navro‘z bayrami qadimiy an‘analarimizni bugungi zamondoshlarimiz estetik qarashlari bilan bog‘lovchi muhim vosita sifatida elimizga xizmat qilib kelmoqda.

Ma‘lumki, oilaviy marosimlar o‘zbek xalq an‘analarining asosiy va muhim qismini tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning ko‘pi bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag‘ishlangani uchun ham yoshlarning ma‘naviy kamol topishida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek xalqi to‘yni yaxshi ko‘ruvchi xalq. Xalqimizda «Topganing to‘yga buyursin» degan ezgu tilak, duo bor. U to‘y qilaman, El duosini olaman, boshqalarni quvonchimga sherik qilaman degan mAsada yashaydi. Shuning uchun to‘y o‘zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi.

Oilaviy qadriyatlarning tiklanish jarayoni milliy-ma‘naviy tiklanish jarayonidagi muhim hodisa bo‘ldi. Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaviy marosimlarga oid muammoli hodisalar ham ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, ko‘pgina iqtisodiy baquvvat oilalar ortiqcha dabdabali, haddan tashqarii ko‘p harajatlar bilan isrofgarchilikka yo‘l qo‘yib to‘y o‘tkazsa, kam harajatli oilalar bolalarning rizqini qiyib, qarzga botib to‘y qilishmoqda. Ko‘pgina marosimlar, masalan, «Beshik to‘yi», «Sunnat to‘yi» oila, qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlar o‘rtasida o‘tkazilish o‘rniga, dabdabali bayramga aylantirib yuborilmoqda.

«Nikoh to‘yi»ga oid «Non sindirish», «Kelin ko‘rdi», «Kelin chorlar», «Kuyov chaqiriq» kabi odatlar alohida-alohida tadbirga aylanib ketmoqda. Ular ortiqcha dabdaba va katta harajatsiz, ixcham shaklda, oila a‘zolari, yaqin qarindoshlar ishtirokida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Joylarda katta to‘yga aylanib ketayotgan «Tug‘ilgan kun», «Beshik to‘yi», «Sunnat to‘yi», «Payg‘ambar yoshi» kabi marosimlar ham kichik, ixcham, oilaviy tadbir sifatida, yaqin qarindosh va ko‘ni-qo‘shnilar ishtirokida nishonlanishni taqozo etadi. Hozirgi

o'tish qiyinchiliklari davrida egalari o'z boyliklarini targ'ib qiladigan – «Kiyim ko'rdi», «Sarpoyozdi», «Tugun qaytdi», «Eshik ochdi» kabi ortiqcha marosimlardan voz kechish kerak bo'lmoqda. Hozirgi kunda to'yning moddiy tomoniga emas, balki ma'naviy jihatlarga alohida urg'u berish lozim.

Xalq an'alariga oid tadqiqotlar, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagilar ma'lum bo'ladi: Insonning tabiiy-hayotiy ehtiyojlar asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlari asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat, sulolalarning mahv etilishi, hukmdorlar, istilochilarning kelib ketishlari, hattoki hududdagi aholi tarkibi o'zgarishlari ham ta'sir etmaydi. Ikkinchi turkum bayram marosimlar esa ma'lum vaqtdan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishi uchun asos bo'lishi mumkin. Uchinchi guruh marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki hukmdorlarning xohish-irodasi sifatida vujudga keladi, o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lgandan so'ng barham topadi.

O'yin. O'yin — ijtimoiy va pedagogik hodisa bo'lib, shaxs ijtimoiy hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda ko'ngil ochish — o'yin mashg'ulotlari bolalar faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida muhim faoliyat hisoblanadi.

O'yin katta kishilarning hayotida, tabiiyki, bolalar hayotiga qaraganda kamroq o'rinni egallaydi. Uning sabablari va vazifalari ham tubdan o'zgaradi. Biroq, katta kishilarda faoliyatning bu turiga ehtiyoj tamoman yuq bo'lib ketadi degan gap emas, o'yinning o'zi shaxsning rivojlanishiga ta'sir etmay qo'yadi.

O'yin jarayonida inson ijtimoiy mohiyatdagi bir qator, eng avvalo o'zini namoyon qilish va o'zini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Shuningdek, o'yin insonning bilish, kommunikativ, estetik, dam olish ehtiyojlarini qondiradi. Dam olishning o'yin shakllaridan maqsadga yo'llangan holda foydalanish orqali tarbiyaviy vazifalar hal etiladi, madaniy boyliklar bilan tanishtirish amalga oshiriladi.

O'yinning o'ziga xos sabablari mavjud. O'yinda ishtirok etishni amaliy zaruriyatlar xam (moddiy maqsadlarga erishish), ijtimoiy majburiyatlar ham talab qilmaydi. Inson o'yinga shodlik va rohat manbai deb qaraydi. O'yin faoliyatiga sabab (motiv) va xatti-xarakat o'rtasidagi murakkab bog'liqlik yotdir. O'yin xarakatlar yig'indisidan iborat bo'lib, inson uchun ular tom ma'nodagi va bevosita mazmuni bilan qiziqarlidir. Faollik bevosita hoxishlardan kelib chiqadi: kishi qandaydir amaliy samara uchun emas, bu uning o'ziga yoqqanligi uchun o'ynaydi.

Har qanday o'yinning mazmuni ma'lum to'siqlarni yengish orqali maqsadga erishishni nazarda tutadi. O'yinning o'z vazifasi, xatti-xarakat qoidalari, roli bo'lib, buni asosiy qatnashuvchilar o'z zimmalariga oladilar. O'yin o'z mazmuniga ega: o'yin davomida kishi xilma-xil aqliy mashqlarni amalga oshiradi, amaliy harakatlar qiladi. Faoliyatning boshqa turlari singari o'yin ham ma'lum xarakat usullarini egallashni talab qiladi.

O'yinda charchoq unutiladi. Hayajonli vaziyatlar ro'y beradi, ma'lum sifatlar tarbiyalanadi, yangi bilim va ko'nikmalar egallanadi. O'yin faoliyatining ijtimoiy hamda shaxsiy nuqtai nazardan ham qimmatli bo'lgan asosiy mahsuloti va natijasi mana shundan iboratdir. Biroq o'yinchilarning o'zlari uchun o'yinning bevosita g'alaba yoki mag'lubiyat deb tushuniladigan natijasi xam qiziqish va ahamiyatga egadir. Ammo, turmushdagi muvaffaqiyatsizliklardan farqli o'larok, o'yindagi mag'lubiyat tashqi ko'ngilsizliklar xavfini tug'dirmaydi va insonni ranjitmaydi.

O'yinning mazmuni va borishi asosan dam oluvchilarning istaklari xamda qiziqishlariga qarab belgilanadi. Bu yerda ish ma'lum darajada boshqarishni talab etadi, ammo faoliyatning boshqa turlariga qiyoslaganda u maksimal bo'lib, guyoki zimdan amalga oshiriladi.

Aslini olganda barcha o'yinlarda musobaqa elementlari: shaxsiy yoki jamoa birinchiligi uchun kurash mavjuddir. Chaqqonlik, kuch, tezlik, topqirlik, zehni o'tkirlik, bilimdonlik, badiiy talant, texnik saviya, ziyraklik, chiroyli xarakat va shu kabilarni boshqalardan ko'ra ko'proq, namoyon qilgan shaxs o'yinda g'olib

chiqadi. Xato qilmaslikka, boshqalardan zaifrok. ko‘rinmaslikka, jamoani og‘ir ahvolga tushirmaslikka intilish ajoyib sport vaziyatini keltirib chiqaradi.

Xatto o‘yin tomoshabinlarsiz o‘tganda ham, xatto kishi yakka o‘zi o‘ynaganda xam u o‘zi bilan o‘zi qiziqarli masala muallifi va shu kabilar bilan xam baribir musobaqalashadi. Musobaqa — o‘yin vaziyatida jismoniy va ma’naviy kuchlarni safarbar qilish sodir bo‘ladi, ruhiy ko‘tarilish vujudga keladi. O‘yindagi muvaffaqiyat o‘z kuchiga ishonch tug‘diradi, kayfiyatni ko‘taradi va umumiy kayfiyatni oshiradi. Musobaqada doimo sodir bo‘ladigan qiyinchiliklarni yengib, kishilar jismoniy, irodaviy va aqliy jihatdan chiniqib boradilar. O‘yin – tarixiy tashkil topgan ijtimoiy voqea, mustaqil faoliyat turi, kishiga xosdir.

O‘yin faoliyati juda ham turli-tumandir: o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan bolalar o‘yinlari, stol o‘yini, doira bo‘lib o‘ynaladigan o‘yin, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari.

O‘yin o‘zi-o‘zini bilish vositasi, o‘yin-kulgi, dam olish, jismoniy va umumiy ijtimoiy tarbiya vositasi, sport vositasi bo‘lishi mumkin.

O‘yin madaniyati elementi sifatida jamiyatni barcha madaniyati va kishilarning har xil extiyohlari bilan rivojlanadi: o‘yin-kulgi, dam olishda, ma’naviy, aqliy va jismoniy kuchni rivojlanishida katta o‘rin egallaydi.

O‘yin faoliyati- nafaqat madaniyatni bir elementi xisoblanadi, balki u bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda ham foydali vosita xisoblanadi. U hardoim maqsadga yo‘naltirilgan va turli-tuman maqsadli yo‘l-yo‘riq hamda asoslangan harakat bilan o‘ziga xos xususiyatni ko‘rsatib turadi. O‘yin faoliyati ko‘proq mehnat bilan umumiylikka ega, ayniqsa bolalik davrida. Biroq o‘yin jarayonida xayotiy extiyohlarni qondirish uchun kishi moddiy boylikni yarataolmaydi.

O‘yin-juda ham quvnoq jo‘shqin faoliyatidir, shuning uchun u yoshlar va bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishda katta boylik kasb etadi. O‘yinni turli-tumanligi katta-kichiklar orasida ayniqsa o‘smirlar va bolalar o‘rtasida eng keng tarqalgani bu harakatli o‘yinlardir. Ular esa ushbu o‘quv qo‘llanma fani xisoblanadi.

Harakatli o'yinlarni o'ziga xos fazilati o'yinni mazmuni harakatni rolini yorqin ifoda qilish xisoblanadi (yugurish, sakrashlar, uloqtirish, otish, to'pni uzatish va ilib olish, qarshilik ko'rsatish va b.q). Bu harakatlantiruvchi harakatlanish uni mazmunini asoslab beradi (mavzu, g'oyasi). U o'yinda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida, turli-tuman qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengib o'tishiga yo'naltiriladi.

Harakatli o'yinlarni orasida xaqiqatdan ham (elementar) harakatli o'yinlar va sport o'yinlari bilan farq qiladi. Xaqiqatan ham (elementar) harakatli o'yinlar o'ynovchilarning o'zlarini ixtiyoriy ravishda o'rnatilgan, maqsadga shartli ravishda erishishga yo'naltirilgan, o'zida ongli ravishda tashabbuskorlik faoliyatini mujassamlashtirgan bo'ladi. O'ynovchilarning maqsadga erishishda faol harakatlantiruvchi harakat talab qiladi, uni bajarishi o'ynovchilarni o'zlarining ijod qilishiga va tashabbuskorligiga bog'liqdir (nishonga tezda yugurib borish, nishonga tez otish, "Raqibiga" tez va epchillik bilan yetib olish yoki undan qochib ketish va x.k).

Harakatlantiruvchi harakatli o'yin qoidalarini bilan belgilanadi, uni bajarilishini o'yinchilardan tashabbuskorlik xulqini o'rnatilgan qoidalar chegarasida mos kelishini talab qiladi. O'yin qoidasi maqsadga erishish yo'lida o'yindagi qiyinchiliklarni va to'siqlarni xarakterini aniqlaydi. Qoidani soni va murakkabligi jixatdan o'yinni o'zining murakkabligiga bog'liqdir.

Xaqiqatdan ham harakatli o'yinlar o'yin qatnashchilaridan maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi. Shuning uchun o'yin qoidasi o'yin qatnashchilarini va rahbarlarni (o'qituvchilar) o'zlari o'tkazilayotgan o'yinni sharoitiga qarab uni o'zgartirib boradilar. Chunki unda o'ynovchilarni aniq belgilangan soni, maydonni aniq katta kichikligi yo'q, shuningdek asbob-anjomlar ham o'zgartirib turiladi (bulava yoki kegli, voleybol yoki oddiy to'p, kichik koptoklar yoki qum solingan xaltachalar, gimnastika yoki oddiy tayoqchalar va x.k).

Sport o'yinlari – bu harakatli o'yini eng yuqori bosqichidir. Bunda o'yin qoidasi qa'tiy belgilangan bo'lib, ular maxsus maydonga va jixozlarni talab

qilinadi. Sport o'yini uchun o'ziga xosligi o'yin jarayonida ma'lum taktikada o'zini tutishi va murakkab harakat texnikasi xisoblanadi. Bu esa o'yin qatnashchilaridan maxsus tayyorgarlikni, trenirovkani talab qiladi. Har bir sport o'yini belgilangan o'yinchilarni soniga, ma'lum maydoncha, asbob – anjomlari xisoblanadi.

Ayrim sport o'yinlarida ayrim o'yinchilarda mutaxassisligi bo'lishi zarurdir (xujumga, ximoyaga, darvozabon va b.q). Sport o'yinlari u yoki bu o'yinda qa'tiy qoidaga mos ravishda maxsus xakamlik qilishni talab qiladi. Ayrim sport o'yinlarida o'yin qatnashchilari tarkibiga qarab birnecha marta (o'quvchilar yoki kattalar, erkaklar yoki o'smir qizlar) o'zgartirilishi mumkin.

Sport o'yinlari sport turi xisoblanadi. Bular bo'yicha har xil darajadagi musobaqalar o'tkaziladi. Natijada sport o'yinlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda eng yaxshi o'yinchilarga sport razryadlari va unvonlar beriladi.

Ayrim harakatli o'yinlar (Masalan, "Lapta", "Voleybol" va b.q) mashg'ulotni maqsadi, ko'rsatmasi va uni tashkil qilish usullariga bog'liq holda, ayrim xolatlarda xaqiqatdan ham o'zi xarakteriga qarab harakatli (elementlari) o'yin deb yuritiladi, boshqalari esa sport o'yinlari sifatida o'tkaziladi. Masalan, o'yin qatnashchilari tasodifan yig'ilib qolganda (dam olish o'yinlarida, sayrlarda) ular xaqiqatdan ham harakatli o'yin xarakteriga ega bo'ladi.

Harakatli o'yinlar yoshlarni, bolalarni umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida foydalaniladi, shuningdek sport o'yinlariga va boshqa sport turlariga va "Alpomish" va "Barchinoy" test meyorlarini topshirishga tayyorlash vositasi bo'lib ham xisoblanadi.

Harakatli o'yinlar o'ziga xos bo'lishi mumkin (yakka tartibda), u xammadan ko'proq tez-tez bolalarni o'zlari tomonidan (to'p o'yini, arg'amchi bilan, chambarakni aylantirish va b.q) tashkil etiladi. Ular tarbiyachi pedagog va yetakchilar tomonidan bolalarni faol dam olishini tashkil qilish maqsadida foydalanishi mumkin (tanaffusda, kuni uzaytirilgan guruxda va boshqa xolatlarda).

Jamoa bo'lib o'ynaladigan (gurux) harakatli o'yinlar aloxida pedagogik ahamiyatga ega bo'ladi, chunki ularda o'ynovchi guruxlar, sinflar, zvenolar, bo'limlar, sport seksiyasida shug'ullanuvchilar qatnashadilar.

Jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinlar har doim musobaqalashish elementi o'ziga xos bo'lib (har bir kishi o'zi uchun yoki har bir kishi o'z jamoasi uchun), shuningdek belgilangan maqsadga erishishida qiziqishni uyg'otishda bir-biriga yordam berish, o'zaro yordamdan iborat bo'ladi. Jamoa o'yinlari uchun o'ziga xosligi shundaki, o'yinda hamma vaqt xolatni o'zgarib turishi, o'yinchilardan tezlik raksiyasini talab qilinadigan bo'ladi. Shuning uchun o'yin jarayonida o'zaro munosabat hardoim o'zgarib turadi: har bir kishi o'zi uchun yoki o'zining jamoasi uchun "Raqiblarini" nisbatan eng qulay xolatni yaratishga intiladilar.

Harakatli o'yinlar bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Ularni aloxida o'yinlar bo'yicha o'tkazish mumkin, o'yinga qo'yilgan vazifa taxminan bir xil sinflar bir xil yoshdagi o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlariga mos kelishi kerak. Biroq harakatli o'yinlar majmuasi bo'yicha musobaqa o'tkazishni pedagogik qimmatini shundaki, bunga har xil jismoniy sifat va malakalarni tarbiyalashga yordam beradigan, turli-tuman o'yinlar kiritiladi. Harakatli o'yin majmuasi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqada har xil yoshdagi bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalar qatnashishlari mumkin, biroq o'yindagi vazifa har xil bo'lishi mumkin.

Harakatli o'yin bo'yicha o'tkaziladigan musobaqadagi bu juziy o'zgarish, sport o'yinlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarga ko'ra ular bir muncha farq qiladi, chunki sport o'yinlarida qa'tiy belgilangan sharoitda va qoida bo'yicha o'tkazishni talab qilinadi.

Har bir harakatli o'yinn o'zining mazmuni shakli (tuzilishi) va metodik xususiyatiga egadir. Harakatli o'yinlarni mazmuni quyidagilardan iborat: mavzu yoki mazmun (ifodali yoki shartli o'ylab qo'yilgan ish, o'yin rejasi) maqsadga erishish uchun o'yinga kiradigan, harakat va qoidadir.

Harakatli o'yinlarni shakli - qo'yilgan maqsadga erishish usullarini keng

tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi, o'yin qatnashchilarini harakatini tashkil qilishdir. O'yin qatnashchilari bir xil o'yinlarda o'zining shaxsiy qiziqishlariga erishish uchun yakka yoki gurux bo'lib harakat qiladilar boshqalarida esa o'zlarining jamoalarini, o'zlarining komandalarini qiziqishlarini ximoya qiladilar. Shuningdek o'yin uchun o'ynovchilar har xil tuzilishda yoki shaklda turadilar (sochilib yoki tarqalib, doirada, safda, qatorda).

O'yin shakli mazmuni bilan bog'liq ravishda kelib chiqadi.

O'yinni metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatiga uni mazmuni va shakliga bog'liqdir. Harakatli o'yinlar metodik jihatdan o'ziga xos bo'ladi: a) jonliligi; b) chegaralangan qoida bo'yicha maqsadga erishishda mustaqil harakat qilish; v) qoida bilan mos ravishda ijodiy tashabbuskorlik bilan harakat qilish; g) o'yindagi aloxida rollarni bajarish, uni mazmuniga muvofiqligi, o'yin qatnashchilarini jamoadagi ma'lum darajadagi o'zaro munosabati o'rnatiladi; d) to'satdan o'yinda o'zgarib qolish xolati bu esa o'yinchilardan tashabbuskorlikni, tez reaksiyani talab qiladi; ye) o'yindagi musobaqa elementlari o'yinda jo'shqinlikni (emotsionalnost) oshiradi va kuchni to'liq sarf qilishni talab qiladi; j) o'yinda kelib chiqadigan "Kelishmovchiliklarni" xal etishda qarama-qarshi tomonlar manfaatlarini bir-biriga zid qo'ymoq esa, yuqori darajadagi jo'shqinlik tonusini yaratadi;

Harakatli o'yinlar nafaqat vosita bo'ladi, balki bolani jismoniy tarbiya metodi bo'lib ham xisoblanadi. Tarbiyada o'yin metodini tushunchasi o'yin metodikasini o'ziga xos xususiyatini inkor qiladi, ya'ni bu boshqa tarbiya jixozlaridan uni metodi munosabatda bo'lishida farqlanadi (musobaqa elementi, syujetni mavjudligi, maqsadga erishishni turli-tuman usullari, nisbatan mustaqil harakati).

O'yin metodi ayniqsa murakkablashgan o'zgartirilgan sharoitda harakatni kompleks takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya va o'yin metodi vositasi sifatida jismoniy sifatlarni takomillashtirishga va tarbiyalashga yordam beradi. Bundan tashqari harakatli o'yinlarda gimnastika, yengil atletika, chang'i va boshqa

sport turlari mashg'ulotlarida aloxida malaka va ko'nikmalarni hamda tabbiy harakatlarni mustaxkamlaydi va takomillashtiradi.

1.2. Madaniy dam olish tadbirlarini tashkil etish uslublari

Vaqt abadiy harakatdir. Bu harakatni hech bir kimsa na to'xtata oladi, na orqaga qaytara oladi. Vaqt shunday bir bebaho boylikki, uni na sotib, na qarzga olib bo'ladi.

Vaqt hech qachon kutib turmaydi: muayyan bir vaqt ichida biron-bir foydali ish qilsangiz ham, hech narsa qilmasangiz ham, u o'taveradi. Ammo inson muayyan vaqt ichida foydali, unumli bir ishni bajara olishga ulgura olishi va undan oqilona foydalanib qolishi kerak.

Inson vaqt o'tishi bilan ulg'ayadi. Biroq, uning kelajakda qanday inson bo'lib voyaga yetishishi vaqt deb atalmish bebaho boylikdan samarali foydalanishiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Xalqimizda "Vaqtning ketdi – naqding ketdi", degan gap bor. Darhaqiqat, vaqtdan oqilona foydalana olgan kishilargina baxtiyor bo'lib, hayotda ko'p narsaga erishadilar, jamiyat uchun foydali ish qilib, munosib nom qoldiradilar. Bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish xayrli ishlarni amalga oshirishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'sh vaqt tushunchasi nisbiy bo'lib, uni "erkin vaqt" deb ham atash mumkin. Chunki, insonning kundalik mehnatdan, turmush tashvishlaridan xoli bo'lib, madaniy dam olishi bo'sh vaqtdir.

Bo'sh vaqt- dam olish, charchoq chiqarish, ma'nan va jismonan rivojlanish uchun sarflanadigan vaqt. Undan qanday foydalanish har kimning o'z ixtiyorida bo'ladi. Bo'sh vaqtda bilim va malaka oshirish, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, sport va havaskorlik ijodiyoti bilan shug'ullanish, madaniy xordiq chiqarish, sayr qilish kabi ko'plab faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lish tushuniladi.

Agar kishilarning kundalik (24 soat) umumiy vaqt byudjetini 4 qismga bo'lsak, uning bir qismini – ish vaqti (7-8 soat), ikkinchi qismini – bo'sh vaqt (4-5 soat), uchinchi qismini – uyqu (7-8 soat) qolgani qismini boshqa zaruriy faoliyatlar – ishga borish uchun transportda, piyoda yurish va hokazolar (4-5 soat) tashkil qilar ekan.

Bo'sh vaqt miqdoriga ko'ra dam olish, haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari va yillik dam olishlarga bo'linadi.

Kundalik dam olish – bir kun davomida, ya'ni ish vaqti tugagandan keyingi faoliyatni o'z ichiga oladi. Kundalik dam olish faoliyatlari ichidagi keng tarqalganlari toza havoda sayr qilish, radio va televideniye dasturlarini eshitish va tomosha qilish, kitob mutolaa qilish, badan tarbiya bilan shug'ulanish kabilarni kiritish mumkin.

Haftalik dam olish- shanba va yakshanba kunlari bajaradigan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu dam olish kunlari tavsiya etiladigan faoliyatlarga shahar chekkasidagi sayilgohlarga chiqib hordiq chiqarish, qarindosh – urug', yoru do'stlardan xabar olish, tomorqa ishlari bilan shug'ullanish nazarda tutiladi. Kundalik va haftalik dam olish mazmunli va maroqli o'tishida madaniyat va san'at muassasalari va sport to'garaklari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Odatda xursandchilik, shodlik va quvonchga boy dam olish lahzalari bayram kunlari namoyon bo'ladi. Unga oldindan tayyorgarlik ko'riladi, eng yaxshi liboslar kiyiladi, lazzatli taomlar tayyorlaniladi. Aynan shu kunlarda televideniye, radio, madaniyat va san'at muassasalari o'zlarining eng yaxshi dasturlarini namoyish etadi.

Har yilda bir marta dam olish - har yil qonuniy ravishda haq to'lanib, hordiq chiqarishga imkoniyat beruvchi ta'tillardir. Bunga sog'likni mustahkamlash uchun sanatoriylar, turistik bazalarda dam olish va shu kabilar kiradi.

Bo'sh vaqt shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun bebaho ne'matdir. Chunki bo'sh vaqt ijtimoiy boylik hisoblanib, shaxs ma'naviyatining yuksalishi uchun xizmat qiladi. Pirovard natijada bo'sh vaqt mehnat unumdorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. "Yaxshi dam – mehnatga xamd", deydi xalqimiz. Agar inson qanchalik yaxshi va unumli mehnat qilsa, shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi. O'z navbatida shu narsa etiborga molikki, yaxshi hordiq chiqara olmagan kishi ko'ngildagidek mehnat qila olmaydi. Shunday ekan bo'sh vaqtdan samarali foydalanish kishilarning mehnat jarayonida sarf bo'lgan kuch quvvatlarini tiklash, sog'liklarini mustahkamlash, ruhiyatlarini tetiklashtirish demakdir.

Fan-texnika taraqqiyoti, kompyuter texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning

ajralmas qismiga aylanib, qo‘l mehnati tobora mexanizatsiyalashgan va bo‘sh vaqt tobora ko‘payayotgan hozirgi paytda aholining madaniy dam olishini tashkil etish muhim masalalardan biriga aylandi. Binobarin, bo‘sh vaqt zahirida shaxs va butun jamiyatning rivoji, kishilarning ma‘naviy boyishlari, sog‘lom bo‘lishlari umrlariga umr qo‘shilishi uchun, ular hayotini yanada mazmunli va rang barang qilish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud.

Madaniy dam olish insonning bo‘sh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega bo‘lishda ma‘naviy- estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sog‘lom bo‘lishida muhim omillardan hisoblanadi. Dam olishning bunday shakliga keyingi vaqtda juda katta e‘tibor berilmoqda. Bu esa o‘z navbatida dam olish madaniyatini yuksaltirish imkonini bermoqda.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad — kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini ta‘minlash bilan birga, ularni har tomonlama ravnaq topishlariga ko‘maklashishdan iboratdir.

Sotsiologlarning hisob-kitoblaricha, asosiy ishdan tashqari shug‘ullanish mumkin bo‘lgan faoliyat turlari 500 taga yetar ekan. Ularga zaruriy vaqtdagi yumushlar ham kirib, soch oldirishdan hammomga tushishgacha, davolanishdan mehmondorchilikka borishgacha, tomorqa uchastkalardagi ishlardan uy hayvonlarini parvarishlashgacha, uyni ta‘mirlashdan to baliq ovigacha bo‘lgan faoliyatlar ham kiradi. Bo‘sh vaqt faoliyatlarining 150 tasidan dam olish faoliyati sifatida foydalansa bo‘lar ekan (ularning asosiy guruhlariga uzluksiz bilim olish va malaka oshirish, jamoat ishlari, havaskorlik ijodi bilan shug‘ullanish, sport bilan mashg‘ul bo‘lish, do‘stlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish, san‘at asarlaridan bahramand bo‘lish va hokazolar kiradi).

Madaniy dam olish va bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanishning turlari va imkoniyatlari shunchalik ko‘pki, ularni maxsus turkumlash kerak bo‘ladi.

Bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish va madaniy dam olish shakllarini shartli ravishda turkumlarga bo‘lish mumkin. Har bir turkumda dam olish shakllari murakkablashib, samaradorligi ortib boradi.

Birinchi turkumga dam olishning eng oddiy shakllari — kam harakatli

hordiq chiqarish charchoqni tarqatish faoliyatlari kiradi. Bunday passiv dam olishga ishdan keyin karavotda yotib charchoq chiqarish, ko'cha, parklar, xiyobonlardagi o'rindiqlarda, uyda divan, stulda o'tirib hordiq chiqarish, ochiq havoda sayr qilish, mehmonga borish kabilar kiradi. Bu hordiq chiqarishni ba'zida «faoliyatsiz dam olish» ham deyishadi. Vaqti-vaqti bilan shunday «passiv» dam olib turish ham kerak. Lekin asosiy maqsad passiv dam olishga vaqtni kamroq sarflab, ko'proq vaqtni aktiv dam olishga qoldirish darkor.

Ikkinchi turkum dam olish shakllari madaniy-ma'naviy boyliklarni egallash, ya'ni kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish, radio va televideniye dasturlarini tinglab, tomosha qilish, teatr, kinoteatrlarda namoyish etiladigan kinofilm, spektakl va badiiy-ommaviy sahnalarni tomosha qilish kabilardir.

II BOB Ijtimoiy-madaniy faoliyatning ilmiy nazariy asoslari

2.1. «Ijtimoiy madaniy faoliyat» tushunchasi va uning mohiyati

O'zbekiston mustakillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardayoq ijtimoiy xayotni qayta qurish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda axolining turmush madaniyatini tubdan yaxshilash, kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirish, ularning o'sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish, xalqning badiiy xavaskorlik ijodi va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi dolzarb muammolarga jiddiy e'tibor berildi.

«Ijtimoiy-madaniy faoliyat», avvalo, madaniy-ma'rifiy muassasa, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istiroxat bog'lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Madaniy-ma'rifiy muassasalar bu g'oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi xisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy xayotida muxim rol oynaydi. Ularni xar tomonlama rivojlantirish, xavaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli xordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat, asosan kishilarning ishdan bo'sh vaqtlarida olib boriladi, kishilarga asosiy ishdan tashqari xar xil mazmundagi va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu faoliyat kishilarning xordiq chiqarishga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida asosiy ish faoliyat bilan yaxshiroq shug'ullanishga samarali yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat – axolini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi ijodiy-tashkiliy ishlar majmuasidir.

2.2. Ijtimoiy madaniy faoliyatning shakllari va vositalari

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'z ob'ekti, predmeti va ish faoliyati mavjud.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat quyidagi ishlardan iborat:

1. Tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish.
2. Xalq xavaskorlik ijodini o'stirish.
3. Kishilarning dam olishini tashkil qilish.

Bu ish faoliyatlari madaniy-marifiy ishlarning shakllarini vujudga keltiradi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat turlariga spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnaval, raqs kechalari, viktorina, ko'rgazma, konkurs, sayoxat va ekskursiya kabilar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, Ijtimoiy-madaniy faoliyatining ish shakllari xilma xil va ko'pdir. Ular xaqida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun maxsus tasnif mavjud. Ular ichida ikki xil tasnif diqqatga sazovordir. Birinchi tur tasniflashga madaniy – ma'rifiy ish shakllariga qatnashadigan kishilarning soni asos qilib olinadi. Ular quyidagilarga bo'linadi: yakka, guruxli va ommaviy shakllar.

1. Yakka shakllar-mutaxassis va tinglovchi o'rtasidagi konsultatsiya, yakka suxbat, ommaviy mashg'ulotlardan tashkil topadi.

2. Guruxli shakllar – taxminan 15-30 kishi qatnashadigan tadbirlar, ya'ni munozara, seminar, suxbat, ekskursiya, xavaskorlik jamoalari mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

3. Ommaviy shakllar – soni cheklanmagan, katta auditoriyaga mo'ljallangan ma'ruza savol-javob kechalari, mavzuli kechalar, ommaviy tomoshalar, bayramlar va boshqalarda vujudga keladi. Ommaviy shakllar Madaniy-ma'rifiy faoliyatning asosiy qismini tashkil qiladi.

2-tur tasniflash madaniy faoliyatda qanday ta'sirchan vositalardan va usullardan foydalanish asosida vujudga keladi. Bu borada xam ish shakllari 3ga bo'linadi: monologik, dialogik va ko'p tarmoqli shakllar.

1. Monologik shakllar – bu notiqning ogzaki, «jonli» so’zi xamda boshqa ta’sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar. Masalan, ma’ruza, doklad, axborot va boshqalar.

2. Diologik shakllar bular asosan, muloqot, suxbat, fikr almashishlardan iborat bo’lib, unga suxbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

3. Ko’p tarmoqli shakllar deganda monologik va diologik shakllar bilan bir qatorda boshqa ta’sirchan vositalardan foydalanish mumkin bo’lgan tadbirlar tushuniladi. Masalan, ogzaki jurnal, mavzuli kechalar.

Madaniy – ma’rifiy muassasalar quyidagi turlarga bo’linadi: Kutubxona, muzey, madaniyat uyi, istiroxat bogi, madaniy dam olish maskanlari.

Kutubxonalar o’zlarining vazifalari, faoliyatlari, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, o’quv yurtlari, kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga bo’linadi. Ommaviy kutubxonalar axolining turli soxaga doir kitoblarga bo’lgan talablarini qondirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi tizimida kuyidagi kutubxonalar bo’ladi:

1. Respublika kutubxonasi.
2. Viloyat kutubxonasi. Ular respublikadagi, viloyatdagi, shaxar, tuman , qishloq kutubxonalariga uslubiy yordam beradilar.
3. Shaxar, tuman kutubxonalari kuyidagi turlarga bo’linadi.
4. Qishloq kutubxonalari.
5. Bolalar kutubxonalari.
6. Madaniyat uyi byudjetida turuvchi klub-kutubxonalari.

O‘quv yurtlari kutubxonalari. Ular o’zlarining fondlariga qarab umumta’lim maktablari, kasb-xunar kollejlari, oliy o’quv yurtlari, malaka oshirish kurslari va institutlarning kutubxonasiga bo’linadi.

Ilmiy-texnika va turli maxsus kutubxonalar. Bu kutubxonalarning kitob fondlari ishlab chiqarish malakalarini oshirishda, xalq xo’jaligi yo’nalishidagi

madaniyatning konkret vazifalarini xal qilishda turli soxadagi xodimlarga yordam beruvchi adabiyotlardan tashkil topadi. Bularga korxona, ilmiy muassasalar, nashriyotlar, konstruktorlik tashkilotlari, teatr, muzika, sport tashkilotlarining kutubxonalari kiradi.

Ilmiy kutubxonalar. Ular o'z ishlarini fan, madaniyat, ishlab chiqarish talabalarga muvofiq tashkil qiladi, mutaxassislarga ilmiy malakalarini oshirishda ko'maklashadi.

Muzeylar - Ular vazifasi tarixiy xujjatlarni, moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarini, san'at asarlarini, tabiat boyliklarining namunalarini to'plash, saqlash, ularni ilmiy ishlab chiqarish va ko'rgazmaga koyishdan iboratdir. Shular bilan birgalikda muzeylar ilmiy - tekshirish ishlarini xam olib boradilar.

Muzeylar quyidagi tarmoqlarga bo'linadi:

1. Tarix muzeylari.
2. Xotira yodgorlik muzeylari.
3. O'lkashunoslik muzeylari.
4. San'atshunoslik muzeylari.
5. Tabiiy-ilmiy muzeylar.

1. *Tarix muzeylarida* Vatanimiz tarixini aks ettiruvchivchi xujjatlar, yodgorliklar, moddiy va ma'naviy madaniyat esdaliklari to'plangan bo'ladi.

2. *Xotira-yodgorlik muzeylari* Respublikamizning mashxur arboblari; shuxrat qozongan yozuvchi va rassomlar, kompozitor, olimlari, san'atkorlar xotirasiga bag'ishlangan bo'ladi. Bularga G'.G'ulom, A.Qahhor, Oybek uy-muzeylari, O'rol Tansiqboyev, M.Ashrafiy uy - muzeylari, Tamaraxonim, M.Turg'unboyeva va boshqalarni ko'rsatish mumkin

3. *O'lkashunoslik muzeylari.* Viloyat, tumanning tabiiy sharoiti tarixi, xo'jaligi madaniyati va turmushini xarakterluvchi xujjatlar va yodgorliklarni to'playdi.

4. *Tabiiy-ilmiy muzeylarga* tabiatshunoslik, biologiya, geografiya muzeylari kiradi.

5. *San'atshunoslik muzeylari*. Ularga tasviriy san'at, amaliy san'at, arxitektura, musiqa, teatr san'ati yutuqlarini ko'rsatuvchi muzeylar kiradi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari madaniyat va san'at saroylari

I tipda – xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo'lgan va kamida 400 o'rindiqli tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tumanning ma'muriy markazlarida;

II tipda – xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda – xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Shaharlarda va tuman markazlarida xizmat ko'rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib I, II va III tipdagi markazlar, qishloq joylarda esa – faqat II va III tipdagi markazlar tashkil etilishi mumkin.

II. Kasaba qo'mitasi tarmog'idagi madaniyat muassasalari. Ularga korxona qoshidagi, shuningdek, sanatoriylar, dam olish uylarining klublari xam kiradi. Ular o'z tashkilotlarining ixtiyorida bo'ladi.

Madaniyat va istiroxat bog'lari - ularda ommaviy sayillar, karnavallar, sport va boshqa bayramlar, turli ommaviy tomoshalar o'tkaziladi, spektakllar, kinofilmlar qoyiladi, siyosiy va ilmiy ma'ruza va dokladlar tinglanadi. Madaniy dam olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari madaniyat va istiroxat bog'larining bezagi, ulardagi tabiiy manzarali joylar kishilarning estetik didlarini o'stirishga yordam beradi

Teatrlar – saxna asarlarining janrlariga muvofiq, quyidagilarga bo'linadi:

- A) opera va balet teatrlari;
- B) drama;
- V) muzikali komediya teatrlari;
- G) yosh tomashabinlar teatrlari;
- D) qo'g'irchoq teatri
- E) miniatyura teatrlari
- J) estrada teatrlari

Kontsert tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

- A) davlat filarmoniyalari;
- B) davlat estrada jamoalari
- V) mustaqil musiqa jamoalari.

Kinoteatrlar – kinofilm namoyish qilish uchun maxsus jixozlangan maskan.

Shuningdek, ma'naviy – ma'rifiy ishlar bilan ommaviy axborot vositalari (radio, tv, matbuot); Ta'lim tarbiya muassasalari; Ijodiy uyushmalar (yozuvchilar, rassom, kompozitorlar, teatr arboblari) xam shug'ulanadilar.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasini uzlashtirishda ularning mohiyati va ijtimoiy-madaniy xayotda tutgan urnini bilish muxim bulganidek, ularning tamoyillari, uziga xos xususiyatlari va vazifalarini ilmiy asosda urganish xam katta axamiyatga egadir.

Mustakillik respublikamiz madaniy-ma'rifiy muassasalari zimmasiga bush vakt sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyatini ifodalaydigan va uning

yunalishi, mazmuni xamda shakllarini belgilaydigan eng umumiy koidalarni – madaniy-ma'rifiy faoliyat tamoyillarini shakllantirish imkonini xam berdi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat faoliyatning uziga xos tamoyillari ularni tashkil kilishda yul-yuriklar kursatadigan asosiy manba xisoblanib, ular kuyidagilardan iboratdir:

- hayotiylik;
- ommaviylik;
- ixtiyoriylik;
- ilmiylik.

Hayot bilan, mustaqil davlatimizni rivojlantirish amaliyoti bilan hamohanglik, buning uchun kishilar oldida turgan vazifalarning mohiyatini tushuntirish, ularni mustaqillikni mustahkamlash va kelajagi buyuk davlat yaratishdagi tarixiy rolini anglash ruxida tarbiyalash madaniy-ma'rifiy faoliyatning hayotiyligidan darak beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning hayotiylik tamoyili aniqlik va maqsadga yo'naltirilganlik xususiyatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki, madaniyat muassasasidagi har bir tadbir muayyan xususiyatga ega bo'lishi va mustaqillik davri talablari bilan bog'lik holda aniq ifodalangan maqsadga ega bo'lish kerak. Shuningdek, u o'zining butun tabiati va mazmuni bilan har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni ragbatlantiradi, insonga o'z qobiliyati va talantini namoyon qilish, rivojlantirish uchun keng imkoniyat beradi, inson hayotiga rang-baranglik kiritadi. Tabiat bilan muloqotda bo'lishiga yordamlashadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning ommaviylik tamoyili bir qator ijtimoiy jihatdan ahamiyatli vazifalarni bajaradi, ya'ni ommaning ijtimoiy-madaniy ijodiyotini hamda ijtimoiy faolligini rivojlantiradi, ommaviy muloqotda bo'lishni tashkil etadi va shular asosida jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Shaxsga ta'sir etish nuktai nazaridan ommaviylik tamoyilining o'ziga xos tamoyili shundan iboratki, har bir kishi madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faqat tomoshabin yoki

kuzatuvchi sifatida emas, balki ruy berayotgan xodisalarning faol qatnashchisi, o'z qarashlarini isbot qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga ommaviylik tamoyili insonga ijtimoiy jixatdan o'z-o'zini namoyon qilish imkonini ham yaratadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasasi insonni ixtiyoriy asoslarda, unga doimiy hurmat va ishonch ruxida ijtimoiy-ijodiy faoliyatga tortadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat xamma vakt tula ixtiyoriylik tamoyillari asosida kuruladi. Agar mexnat jamoalarida insonning faoliyati ba'zan sof moddiy sabablarga kura belgilansa, madaniy-ma'rifiy faoliyatda, birinchi navbatda, faoliyatning mazmuniga kizikish asosida namoyon buladi. Boshkacha aytganda, madaniy-ma'rifiy muassasa jamoasi shaxsning ma'naviy-ijodiy kobiliyatini namoyon kilish va rivojlantirish uchun erkinlik beradi. Bu tamoyilning axamiyati madaniy-ma'rifiy muassasasiga katnashishning ixtiyoriyligi, u yoki bu madaniy-ma'rifiy uyushmalarida ishtirok etishni tan olish bilan cheklanib kolmaydi. Ixtiyoriylik madaniy-ma'rifiy muassasalari tomonidan taklif kilinadigan kuplab faoliyat turlaridan birini erkin tanlab olish imkoniyatini aks ettiradi va shaxsning bush vakt sharoitida uz ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini uzi tomonidan belgilab olishini ifodalaydi.

Hozirgi zamon madaniy-ma'rifiy ishlari kulamining muttasil oshib borishi va murakkablashuvi undan turli soxalarning uzaro alokasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshkaruvni talab etadi. Ilmiylik tamoyili madaniy-ma'rifiy faoliyatning kuzga kuringan tamoyillaridan biri xisoblanadi. U madaniy-ma'rifiy faoliyatda tarbiya jarayonining maksadi, mazmuni, shakli va uslublarini kullashni, bir-biriga yakin fanlar – pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iktisodiyot va boshkaruv nazariyasining yutuklaridan foydalanishni talab etadi.

Ilmiylik tamoyili bir kator belgilarda namoyon buladi. Ular orasida ob'ektivlik belgisiga birinchi urinni ajratish mumkin. Madaniy-ma'rifiy ishlari tarbiyaviy ta'sir kursatish kerak bulgan ob'ektning xakikiy xolati va bunday ta'sir kursatishning real imkoniyatlarini xisobga olgan xolda, umuman jamiyat va

aloxida shaxs rivojlanishining ob'ektiv konuniyatlarini bilib olish va ulardan okilona foydalanish asosida kurilishi lozim va shunday bulishi kerak.

Ilmiylik vokealar, faktlar va ularning moxiyatini ochishni, ijtimoiy xayotning real manzarasini va uning rivojlanish jarayonlarini, ijtimoiy tarakkiyotning borishini belgilab beradigan kuchlarni aniklash imkonini beradi. Vokelikni kabul kilishning tasodifiy ta'sirlarining oldini olish va bizni urab turgan dunyo xakida chinakam ilmiy tasavvurni paydo kilish madaniy-ma'rifiy faoliyatning muxim vazifasi xisoblanib, ilmiylik tamoyili shaxs dunyokarashini shakllanishini kuchaytirishga katta xissa kushadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning tamoyillari bir-biridan aloxida xolda mavjud bulmaydi, ular yaxlit tizimni tashkil etadi va ularning xar biri bush vakt sharoitida ommaning ijtimoiy-madaniy faoliyatida yagona jarayonning ajralmas kismini ifodalaydi. Madaniy-ma'rifiy faoliyatning tamoyillari ijtimoiy-madaniy faoliyatning mavjud konuniyatlarini aks ettiradi va barchasi birgalikda madaniy-ma'rifiy ishlarning xarakteri, mazmuni va shakllarini belgilaydi. Bu tamoyillardan birining bulmasligi umumiy bir butunlikning buzulishiga olib keladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat aholining dam olishini tashkil kilish, ommaga axborot va bilim berish, ommani xavaskorlik ijodiyotiga jalb kilish kabi vazifalarni xam bajaradi.

Demak, madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlashda madaniy-ma'rifiy faoliyatning o'ziga xos tashkiliy xususiyatlariga murojaat etish muxim urin tutadi. Chunki xar xil madaniy-ma'rifiy faoliyat shaklini tashkil kilishda bu vazifalardan birdek foydalanila bermaydi. Ba'zi shakllarda ko'prok axborot beriladi, ba'zilari, asosan, dam olish uchun xizmat qiladi, boshqalari ko'prok madaniy-ijodiy jarayonga qatnashtirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatini bilish shu soxaga oid bilimlarni konkretlashtiradi, ularni egallashga aniklik

kiritadi tadbirlar mohiyati va xususiyatini to'larok yoritib berishga yordam beradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatdagi tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u bir marta tashkil kilinib, asosan, bir marta namoyish kilinadi. Agar spektakllar, kinofilmlar tayyorlanganidan sung yuzlab marta namoyish kilinsa, madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tadbirlar, asosan, takroran kuyilmaydi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat tadbirlarining deyarli xammasi xuddi shu xususiyatga ega. Fakat badiiy targibot-tashvikot jamoalari, ba'zi mavzuli kontsert dasturlari bir marta tayyorlanib, xar xil joylarda bir necha marta namoyish etilishi mumkin. Ular ma'lum vakt mobaynida (masalan, ma'lum mavsumda, ish jarayonida, ya'ni paxta, galla yigim-terimida...) bir necha marta namoyish kilinishi mumkin. Lekin ma'lum muddatdan sung, albatta boshka yangi dastur tuzishga tayyorgarlik kuruladi.

Agar teatrdagi qo'yilgan pesani yana bir necha yildan keyin qaytadan saxnalashtirish mumkin bo'lsa, madaniy-ma'rifiy muassasa tadbirlarida bu xolat takrorlanmaydi. Biror tadbir stsenariysi sxemasini ikkinchisiga qo'llash mumkin emas. Har kanday yangi stsenariy yangi tuzilishni, yangi mexnatni talab kiladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yana bir xususiyati ular, asosan, maxalliy axoli uchun, ularning real hayotidan olingan materiallar asosida tuziladi. Tadbirlarning bosh kahramoni sifatida muayyan joyda mexnat kilib, maxalliy axoli orasida namuna bulayotgan kishilar namoyon buladi. Masalan, «Xotira va kadrlash kuni»ga bagishlangan bayramni olaylik. Bunda maxalliy joyda yashaydigan urush katnashchilari, mexnat faxriylarining kursatgan jasoratlariga asosiy urgu berilishi kerak. Urush kahramonlarining uz suzlarini eshitish tadbirni jonlantiradi va ta'sirchanligini oshiradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning navbatdagi xususiyati shundan iboratki,

ularda juda keng kulamda ta'sirchan vositalar birlashtiriladi.

Tadbirlar real xayotning uzini tashkil kilishi bilan birga, undagi muxim vokealarni uz mazmuniga singdiradi. Ularning moxiyatini ochish va axamiyatini yoritish uchun ta'sirchan vositalarga murojaat kilinadi. Tadbirda mazmun ma'lum bir kompazitsion tuzilish xolatiga kelishi uchun undagi barcha bayon kilish va ta'sirchan vositalar xam bir- birlari bilan birlashtiriladi, uygunlashtiriladi. Aks xolda tadbirning mazmuni puch, shakli esa samarasiz bulib kolishi mumkin.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning navbatdagi, ya'ni turtinchi xususiyati bu ommani tadbir katnashchisiga aylantirishdir.

Madaniy-ma'rifiy muasassalarida uyushtiriladigan tadbirlarni ommaviy deb atashning boisi shundaki, u omma uchun uyushtiriladi va ommaning ishtirokida utadi. Agar teatr, kino xamda televizorda asar katnashchilari va tomoshabinlar urtasida kurinmas «devor» mavjud bulib, omma fakat tomoshabin rolini bajaradigan bulsa, madaniy-ma'rifiy muassasa tadbirlarda esa ommaning aktiv ishtiroki kuzda tutiladi.

Albatta, tadbirlarda xammani birday faol katnashtirish kiyin. Uning asosiy katnashchilari oldindan belgilab kuyilgan badiiy xavaskorlik jamoalarining a'zolari xamda suzga chikadigan kishilardir. Lekin tadbir tashkilotchisi bu asosiy kuatnashchilar bilan kifoyalanib kolmasdan, balki ommani xam faollashtirish, tadbir ishtirokchisiga aylantirish yullaridan foydalanmogi lozim. Buning uchun tadbir ishtirokchilari o'rtasida ommaviy o'yinlar, qo'shiqlar, savol-javoblar kabi maxsus tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq. Chunki san'at-odamni tomoshabin yoki tinglovchi bo'lib qolganda emas, balki u ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etganda o'ziga xammadan ko'prok qamrab oladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning g'oyaviy emotsional vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Maxsus materiallarsiz uy qurib bo'lmaganidek, vositalarisiz ma'daniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilib bo'lmaydi. Vositalar tadbirning tarkibiy qismi, asosiy mexanizmlari sifatida xizmat qiladi.

Vosita deganda, kishilarning xissiyotiga, psixologiyasiga va ongiga ta'sir etuvchi va bilim olish samaradorligini oshiruvchi g'oyaviy-xissiy qurollarni tushunamiz.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatda qo'llaniladigan vositalarning diapozoni juda keng o'va ularning soni ko'pdir. Ma'daniy-ma'rifiy tadbirlarda jonli so'z, matbuot, ko'rgazmali qurollar, adabiyot va san'at, xar xil texnik apparatlar kabi vositalarda keng foydalanamiz.

JONLI SO'Z. Asosiy ta'sirchan vositalardan biri- bu jonli so'zdir. (Ba'zi xollarda «og'zaki so'z» deb xam yuritiladi). Jonli so'z ma'daniy-ma'rifiy shakllarning xammasida eng asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda jonli so'z faqatgina mazmunni yoritishda xizmat qilmasdan balki tadbir syujeti bilan ommaviy xolatlarni xam bir-biriga uyg'unlashtirib boradi. Ayni jonli so'z voqea ma'nosini tomoshabinga yetkazadi, bir epizodni 2-ga bog'laydi, boshqaruvchining auditoriya bilan muloqotda bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Jonli so'zining yana bir afzallik tomoni shundaki, ba'zan fikrini xech qanday ta'sirchan vosita tomoshabinga yetkazib bera olmaydigan daqiqalarda jonli so'z yordamiga keladi.

Ommaviy tadbirlarda boshqaruvchi so'zi asosiy o'rinni egallaydi, ba'zi xollarda esa u keganing boshidan to oxirigacha yetakchi vosita sifatida qo'llaniladi. U kirish so'zi (monolog) shaklida yoki muqaddima sifatida yaxshi xizmat qilishi mumkin. Tadbir davomida esa boshqaruvchi, sharxlovchi, xikoyachi yoki intervyu beruvchi aylanib, jonli so'zdan foydalanish. Tadbirlarda jonli so'zdan foydalanish imkoniyatlari juda ko'p.

Jonli soʻz boshqaruvchining gapidan tashqari, tadbir qaxromonining nutqi yoki undagi qatnashchining soʻzi, kecha qaxramoniga atalgan tabrik, mexnat veteranlari, urush ishtirokchilarining soʻzi boʻlishi mumkin.

BADIIY SOʻZ - aytilmoqchi boʻlgan fikrni badiiy-emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Madaniy-maʼrifiy faoliyat shakllarida badiiy soʻzning sheʼr oʻqish, prozaik va sheʼriy monologlar, juft yoki koʻpchilik tomonidan oʻqiladigan sheʼrlar kabi turlardan keng foydalaniladi.

Badiiy soʻz boshqa materiallar bilan bir vaqtda ijro etilishi mumkin. Masalan, sheʼr oʻqilalayotgan bir vaqtda sheʼrning maʼnosiga mos keladigan kino parchalari koʻrsatilishi mumkin.

Badiiy soʻzni vujudga keltirish uchun badiiy asarlarda keltirishning oʻzi kamlik qiladi. Yozma sheʼr-yozma badiiy soʻzdir. Uni jonli badiiy soʻzga aylantirib, ijro etish uchun ijrochining sheʼrdagi fikrini munosabati, ruxiy kechinmalari, xis-xayajonli talab qiladi. Aks xolda sheʼrning oddiy, jonli soʻzdan farqi qolmaydi. Yana shuni unutmaslik kerakki, chuqur anglash, fikrning tub mazmuniga yetib xisqxayajon bilan aytilgan xar bir jonli soʻz badiiy soʻzga aylanib ketishi mumkin. Agar «1941» yoki «1991» degan iborani shunday aytib oʻtsak, u quruq raqamning oʻzi boʻlib qoladi. Lekin koʻz oldimizga urushning boshlanishini keltirib, daxshatli voqealarni xis qilib, mantiq talab qiladigan damli kayfiyatda, maʼnoli «ming... toʻqqiz yuz.... qirq bir...» desak bu soʻz badiiy- emotsional taʼsir etadi. Shunday qilib, oddiy soʻz badiiy soʻzga aylanib ketishi uchun undagi fikriy mantiq xis qilinib, ijro etilishi kerak.

MATBUOT VOSITALARI. Maʼlumki, maʼdaniy-maʼrifiy tadbirlarga axoli yangi, ularga xali maʼlum boʻlmagan va qiziqarli voqealardan xabardor boʻlgani uchun keladi. Bu ishda matbuot vositalari, yaʼni yangi gazeta, jurnallar, ayniqsa, kitoblar bitmas tuganmas manba boʻlishi mumkin.

Matbuot eng asosiy axborot tarqatuvchi va saqlovchi vositadir. Shunday ekan tadbir tayyorlovchilar tadbirning mazmunini boyitish uchun ularga xar doim murojaat qilmog'i lozim. Tadbirlarda ko'proq tomoshabinlarning nazariga tushmagan materiallardan foydalanishga xarakat qilish kerak.

MUSIQA. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda musiqa yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Tadbirlarda musiqadan 2 xil variantlarda foydalanish mumkin.

1. Tadbirning aloxida nomeri sifatida.
2. Tadbirlarda aks etilayotgan voqealarning ta'sirini oshirish uchun qo'shimcha vosita (musiqaviy fon) sifatida, 1-variantda badiiy xavaskorlik jamoalarining tayyor yoki maxsus tayyorlangan nomeridan foydalaniladi. Bunday paytda nomer tadbir mazmuni va mavzuiga mos ravishda epizodning tarkibiy qismiga aylanib ketmog'i kerak. Masalan, xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tadbirlarda onalarga bag'ishlangan. «Onajonlar, assalom» qo'shig'i ijro etiladi. Bu qo'shiq aloxida nomer sifatida beriladi. Musiqadan foydalanishning bu varianti tadbirlarda juda keng qo'llanilib, she'r o'qilayotganda xam, kino lavxalar ko'rsatilayotgan xam drammatik parchalar ko'rsatilayotganda xam bu vositalarning ta'sirchanligini oshirish mag'sadida xizmat qiladi.

Musika, asosan tadbir ta'sirini kuchaytiruvchi vosita sifatida xam ishlatilib, aytilayotgan fikrning nozik kechinmalarini ommaga yetkazib berishga xizmat qiladi.

DRAMMATIK PARCHALAR. San'atning bu turi boshqa badiiy asarlardan farq qilib, unda g'oyalar kurashi, qarama-qarshi kuchlar to'qlashuvi, konfliktlar yorqinroq, oydinroq yoritiladi. Shuning uchun teatrlashtirilgan tadbirlarda mazmun rivojiga qarab, drammatik parchalardan keng foydalaniladi.

Tadbirlarda drammatik parchalardan foydalanishning 2 xil usuli bor:

1. Tayyor asarlardan olingan parchalar
2. Stsenaristning o'zi tadbir uchun maxsus yozgan drammatik epizodlar.

Teatrlashtirishda faqatgina p'esalardan parchalar olinishi bilan kifolanib qolmasdan, kecha yo'nalishiga qarab, badiiy adabiyotlardan xam parchalar olinishi mumkin.

Drammatik parchalardan foydalanishning 2-usuli xam keyingi paytda keng qo'llanilmoqda. Tadbirning asosiy vazifalaridan biri maxalliy voqealarni aks ettirish bo'lgani uchun, stsenariy mualliflari joylarda bo'lgan voqealarni kichik drammatik lavxa shakliga keltirib, undan samarali foydalanmoqda.

Tajribada shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq axolisida madaniy-ma'rifiy tadbirlarga bo'lgan qiziqishning sabablaridan biri bu maxalliy faktlarni, voqealarni instsenirovka shaklida ko'rsatishdir. Ayniqsa maxalliy voqealar asosida yozilgan intermediyalar axoliga manzur bo'lmoqda.

Shuni unutmaslik kerakki, barcha saxna asarlaridan, psalardan olingan drammatik parchalar yoki badiiy adabiyotlar asosida qilingan kichik instsenirovkalar yoki maxsus stsenariy uchun yozilgan lavxalardan foydalanish-tadbir mazmunining rivojiga yordam bermog'i kerak.

KINOLAVXA- badiiy yoki xujjatli filmlardan olinib, tadbir tashkilotchilariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Kinoning «sexrli kuchi» shundan iboratki, u bo'lib o'tgan voqealarni xaqqoniy tasvirlaydi va jonli aks ettiradi. U tarixiy voqealarning guvoxi sifatida xizmat qiladi. Ulardan foydalanish tadbirlarning mazmunini boyitadi, voqealikning xaqqoniy obrazini ko'rgazmali gavdalantiradi. Asosan,

kinolavxalardan foydalanish tadbir stsenariysi yozilyotganda rivojlantiriladi va tanlanadi. Ko'pgina tadbirlarda filmlardan olingan lavxalarning o'zi yaxlit bir epizodni tashkil qilishi mumkin. Ba'zida kinolavxalar boshqa vositalar, ya'ni jonli va badiiy so'z, qo'shiqlar bilan parallel aks ettiriladi.

TEXNIK VOSITALAR. Xozirgi kunda madaniy-ma'rifiy ishlarni, jumladan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni texnik vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki tadbir maxsus nur bilan bezatilmasa, tashkil qilinayotgan tadbir shakli ko'rimsiz va kambag'al bo'lib qoladi.

Texnik vositalarning yana bir vazifasi saxnaga xar xil ranglar berish, proyeksion tasvirlar tushirib, tadbirni go'zallashtirish va badiiy-g'oyafiy bezashdan iboratdir.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda foydalaniladigan texnik vositalar, asosan, 2 guruxga bo'linadi:

Nurli-proyeksion apparatlar

Ovozli texnik vositalar

Nurli-proyeksion apparatlar tomoshabinlarning kayfiyatini ko'tarishda ,ularning diqqatini tadbir voqealarining kerakli tomoniga jalb qilishda muxim rol oynaydi. Proyeksion apparatlar yordamida saxnaning to'riga, ya'ni ekranga hohlagan kattalikda tasvir tushirish mumkin. Ovozli texnik vositalarga ovozlarni yozadigan va tarqatadigan apparatlar, ya'ni magnitafon, diktafon, radio, audio, video apparaturalar, mikrafon va ovoz kuchaytirgichlar kiradi. Ular kerakli ovozlarni, shovqin-suronlarni, musiqa, ashula va nutqlarni oldindan yozib olib, ularni tadbirda eshittirish uchun yaxshi imkiniyatlar yaratib beradi.

KO'RGAZMALI VOSITALAR. Tadbirlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. U tadbir mazmunining

yaxshiroq yoritilishiga yordam beradi, tomoshabinning kayfiyatini ko'taradi va taassurotlarini boyitadi. Ko'rgazmali vositalardan madaniy-ma'rifiy tadbirlarning barchasida foydalaniladi.

Tomoshabinning bo'lajak tadbir bilan ilk bor tanishtiruvchi ko'rgazmali vosita-bu afishalar va taklifnomalardir. E'lonlarda faqat tadbir bo'lishi xaqidagi xabarning o'zinigina yozib qoyish kifoya qilmaydi, balki uning tuzilishiga qarab, ko'rgazmali bezash xam lozim, she'rlar yozish mumkin. Bu tomoshabinning tadbirga qiziqishini oshiradi. Ko'rgazmalar tadbir mazmuniga to'g'ri kelishi kerak.

Yuqoridagilardan tashqari yana madaniy-ma'rifiy faoliyat tadbirlarida xalq ijodidan ham foydalaniladi.

Xalq ijodi mehnatkash xalq ommasi tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib tobora takomillashtirib, sayqal topib taraqqiy etgan ijod mahsulidir. Unda xalqning mehnat faoliyati, ijtimoiy va maishiy hayoti, turmushi, tabiat haqidagi tushunchalari, madaniyati, e'tiqodi, orzu-istaklari, xis-tuyg'ulari va tafakkurining boy olami, baxtli va adolatli zamon haqidagi oylari o'z ifodasini topadi.

O'zaro chambarsas bog'liq bo'lgan xalq ijodini mutaxassislar shartli ravishda quyidagi turlarga bo'ladilar:

- 1). Xalq og'zaki ijodi;
- 2). Xalq musiqasi, folklor musiqasi;
- 3). Xalq raqs san'ati;
- 4). Xalq teatri;

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda xalq og'zaki ijodi janrlarida foydalanish muxim ahamiyatga ega. Stsenariylarda «so'z ko'rki-maqol» dan, xalq donishmandligi hisoblangan afsona va rivoyatlardan foydalanish tadbir «tili» ni boyitadi, ta'sirchanligini oshiradi.

Latifa, lof, askiya tadbirlarning qiziqarliligini oshiradi, mazmunini mustaxkamlaydi, tomoshabinlarni aktivlashtiradi. Topishmoqlar tadbir ijrochilari bilan auditoriya o'rtasida «jonli» aloqa o'rnatishga yaxshi imkoniyat beradi. Ayniqsa bolalar uchun tayyorlangan tadbirlarda erkak va dostonlar qaxramonlari ularni g'oyaviy-estetik tarbiyalashda muxim rol bajaradi. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li, Zumrad, Kenja botir...

Xalq musiqa folklori-iste'dodli xalq ijrochilari-sozanda, xofiz oshiq, oqin, baxshi, xalfalar tomonidan qo'shiqlari muxim o'rin tutadi. Inson xayotining boshlanishidan to so'nggi xotimasigacha bo'ladigan har bir marosim, toy bayram va boshqa voqealarda ijro etiladigan qo'shiqlar mavjud. Jumladan, bola tug'ilishi, tarbiyalanishi, ilk bor sochini oldirishi, tishi chiqishi birinchi mustaqil qadam tashlashi marosimga bag'ishlangan qo'shiqlar, nikox toylarida aytiladigan yor-yor. Lapar, o'lanlar, motam marosimlarida aytiladigan marsiya, yig'iq yo'qlov kabi aza qo'shiqlar oilaviy tadbirlarning muxim xalqining tabiat va mehnat bayramlari xam maxsus ijro etiladigan qo'shiqlarsiz o'tmagan. Madaniy-ma'rifiy faoliyat shakllarini tayyorlashda har bir tadbirga mos xalq qo'shiqlarini izlab topmoq va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq raqs san'ati-voqealikni harakatlar orqali tasvir etadigan ijod turidir. O'zbek xalqida raqs san'ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog'lanib ketgan va shu an'ana hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz badiiy xavaskorlik ijodining eng rivojlangan janri-bu ashula va raqs ansambllaridir. Xalq raqs san'atidan vosita sifatida madaniy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanish katta ahamiyatga ega.

Xalq teatri san'ati-asosan, so'z va harakat san'atidan tashkil topgan. U qadimdan o'zida qo'shiq, musiqa, qiziqchilik, akrobatika, nayrangbozlik, ko'zboylag'ichlik kabi elementlarni birlashtirgan. Dastlabki paytlarda u ovchilik, dexqonchilikda uchraydigan voqealarni obrazli harakatlar (oyinlar) orqali tasvirlash asosida vujudga kelgan va xalq bayramlari marosimlarida rivojlanib, xalq teatr san'ati darajasiga ko'tarilgan. Jamiyat taraqqiyoti davomida xalq teatr san'ati ijrochilari bir necha soxalar boyicha mutaxassislasha borishgan. O'zbek an'anaviy xalq teatrining quyidagi asosiy turlari shakllangan:

1. Masxarabozlik va qiziqchilik.
2. Dorbozlik, nayrangbozlik (tsirk san'ati).
3. Qo'g'irchoqbozlik.

Keyingi vaqtlarda darbozlik va masxarabozlik san'atiga qiziqish ortib bormoqda. Ko'proq unga yoshlar jalb etilmoqda. Tomosha repertuarlarining rang-barangligi, ijrochilarning maxorati ortayotganligi quvonarli xoldir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat ko'p qirrali faoliyat bo'lgani uchun unda juda ko'p usullardan foydalaniladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat-bu tarbiyaviy, ma'rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o'ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shunday qilib madaniy-ma'rifiy faoliyatda foydalanadigan usullar quyidagilar:

1. Tarbiyaviy usullar.
2. Ma'rifiy usullar.
3. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonni tashkil qilish usullari (buni faollashtirish usuli deyish xam mumkin).
4. Tashkiliy usullar.

I. TARBIYAVIY USULLAR - Ijtimoiy-madaniy faoliyat, eng avvalo, tarbiyaviy jarayon bo'lgani uchun ularda pedagogikaga oid tarbiyaviy

usullardan foydalanish qonuniydir. Lekin bu ularni to'g'ridan-to'g'ri, ko'r-ko'rona qo'llash, degan gap emas. Tarbiyaviy usul quyidagi turlarga bo'linadi: ishontirish usuli, namuna ko'rsatish, taqdirlash, tandiq qilish usulilari.

ISHONTIRISH USULIning asosiy vazifasi auditoriyaga ta'sir ko'rsatishdir. Buning uchun tadbirning mazmunini ishonarli xaqqoniy qilib, tuzish kerak. Omma tashkilotchilarining fikriga qo'shila olmasa, berilgan ma'lumotlarga ishonmasa, u xolda tadbirning maqsadi amalga oshmaydi. Bunga yo'l qoymaslik uchun tadbirda xaqqoniy, mantiqli, ishonarli va qiziqarli xujjatlardan manbaalardan foydalanish kerak. Tadbir mazmuni ishonarli bo'lgani uchun uni umumiyashtirilgan badiiy to'qima asosida vujudga keltirmasdan, balki real xayotda bo'lib o'tayotgan xaqqoniy va xujjatli materiallar asosida tuzish lozim.

NAMUNA USULI orqali mustaqil yurtimizning eng yaxshi fazilatlari tarannum etiladi. Yaxshi o'qiyotgan. Yaxshi ishlayotgan namuna ko'rsatayotganlardan o'rnak olishga undaydi.

TAQDIRLASH USULI- madaniy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy vositalaridan biri shundaki, ular kishilarni ma'naviy taqdirlaydi. Masalan, tadbirlarda g'oliblarni faxriy yorliqlar, maqto'v qog'ozlari, kitoblar va boshqa qimmatbaxo buyumlar bilan manfaatdor bo'lishga, yaxshiroq ishlashga, xalqqa halol xizmat qilishga undaydi.

TANQID QILISH USULI, pedagogikada bu usul jazolash deb xam yuritiladi. Jazolash usuli muntazam ishlaydigan jamoalarda: ishlab chiqarishda, o'quv yurtlarda qo'llaniladi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar vaqtincha yig'ilgan auditoriya bo'lgani uchun unda tanqid qilish usulidan o'zigan xos yo'l bilan foydalaniladi. Tanqid ob'ektiga xayotning rivojiga xalaqit beruvchi barcha «Salbiy qaxramonlar» kirishi mumkin. Tadbirlarda ularning satira va yumor orqali tanqid qilinishi ularning omma orasida fosh etilishi, 1-dan, ularni o'zi

xaqida chuqur oylashga olib keladi, 2-dan, kishilari bundaylarga qarshi kurashishiga undaydi.

II. MA'RIFIY USULLAR-Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri ommaga yangi axborot va bilim berishdan iboratdir. Tadbirlarda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'rifiy usullar- bu bayon etish, o'rganish va namoyish qilishdir.

BAYON ETISH USULIning asosiy maqsadi shundan iboratki, u tadbirning g'oyasi, mazmuni, axborot va faktorlarni auditoriyaga jonli so'z orqali bayon qilish shaklida yetkazib beradi. Ommaviy tadbirlar tarkibida ko'pincha shunday faktlar va ma'lumotlar bo'ladiki, ular batafsil tushuntirishni talab qiladi. Xuddi shunday daqiqalarda bayon etish katta yordam beradi. Bu usul yordamida ma'lumotlarning mohiyati ochiladi, xususiyatlari yoritiladi va to'liq bilim beriladi. Bu usul ko'proq mavzuli kechalarda ko'proq qo'llaniladi.

NAMOYISH QILISH USULI tadbir mazmunidagi voqealarning obrazli tasvirini ko'rgamali shaklda auditoriyaga yetkazishga yordam beradi. Namoyish qilish usuli, asosan ta'sirchan vositalar orqali bajarilib, unda voqealar yoki kecha qaxramonlarining xayotiga oid ma'lumotlar xujjatli, real aks ettiriladi.

III. XORDIQ CHIQARISH VA IJODIY JARAYONGA Qo'SHILISH, YA'NI FAOLLASHTIRISH USULLARI. Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy tadbirlar ommaning ishdan bo'sh, dam olish vaqtida ijodiy jarayonga qo'shilishi natijasida vujudga keladi.

Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish usulida ommani aktivlashtirish mushim o'rin egallaydi. Buning uchun tadbir qatnashchilaridan intervyu olish ular bilan savol-javob uyushtirish, ba'zilarini so'zga chiqarib, fikrini bilish, viktorina uyushtirish kabilarni bajarish mumkin.

Ba'zan sahnaviy harakatlarni zal, omma ichiga ko'chirish xam auditoriyani aktivlashtirishga ko'maklashadi. Ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish uchun boshqa barcha usullardan samarali foydalanish bilan birga maxsus holatlardan foydaanish ko'zda tutiladi. Masalan, auditoriya ichida ashula aytish, ommaviy raqslar tashkil qilish, xalq oyinlaridan foydalanish, umumiy qarorlar qabul qilish va boshqa xolatlar, so'zsiz auditoriyani tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi.

IV. TASHKILIY USUL illyustratsiyalashtirish va teatrlashtirish usullari orqali amalga oshiriladi.

ILLYUSTRATSIYALASHTIRISH USULI - bu boshqaruvchining so'z mazmuniga va maqsadiga mos keladigan turli-tuman badiiy va san'at vositalaridan foydalanishdir. Bu usulda asosiy urg'u jonli so'zga uni kuchaytirish va to'ldirish uchun xizmat qiladi. Musiqa, qo'shiq, raqs she'r, monolog, kinolavxalardan ilmostratsiya sifatida foydalaniladi. Bu usul asosida tayyorlangan tadbirlarda ko'pincha yagona syujet liniyasi bo'lishi shart emas. Chunki tadbirdagi qismlar bir-birlari bilan mexanik birlashib ketadi.

Ilyustratsiyalashtirish usulida boshqaruvchi ma'lum mavzular xaqida so'z yuritadi, nutqining mazmuni ko'rgazmali va jonli bo'lgani uchun bayon etilgan voqealarga oid kinolavxalar ko'rsatiladi. Nutq mazmuni tasviriy lavxalar bilan boyitiladi. Bu usul madaniy-ma'rifiy tadbirlardan mavzuli kechalarda, badiiy kompozitsiyalarda keng qo'llaniladi. Ilyustratsiyalashtirish usuli orqali sof tarqibot-tashviqot ish shakllari badiiylashtirilgan tadbirga aylanib ketadi.

TEATRLASHTIRISH USULI - alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonunlari asosida, drammaturgiya talablariga javob bera oladigan tadbirlarda mo'z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo'llaniladigan barcha g'oyaviy emotsional vositalar xamda og'zaki chiqishlar

kompleks tarzda birlashadi. Va yagona syujet tizimini vujudga keltiradi.

Teatrlashtirish usuli alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonuniyatlari asosida, drammaturgiya talablariga javob bera oladigan tadbirlarda o'z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo'llaniladigan barcha g'oyaviy emotsional vositalar xamda og'zaki chiqishlar kompleks tarzda birlashadi va yagona syujet liniyasini vujudga keltiradi.

Teatrlashtirish usulida quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. Teatrlashtirilgan tadbirlarda, eng avvalo, yagona g'oyaviy-badiiy syujet va kompozitsion tuzilish bo'lishi kerak. U kompozitsion tuzilish-muqaddima, asosiy voqea, tugun voqealar rivoji, kulminatsiya va final kabi qismlardan iborat bo'lishi kerak.

2. Teatrlashtirilgan tadbirda foydalanadigan vositalar aloxida ajralib qolmasdan syujetga singib ketishi, uning rivojlanishiga yordam berish lozim. Shuning uchun unda syujet mazmuniga qarab kerakli ta'sirli vositalar mantiqan tanlanadi.

3. Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qaxramon obrazli yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

4. Teatrlashtirilgan shakllarda omma oddiy tomoshabin emas. Balki tadbir qatnashchisiga ketishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, ilmostratsiyalashtirish usulini xam, teatrlashtirish usulini xam shoxlagan shaklga nisbatan ishlatib bo'lmaydi. Har bir usulning o'zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, ilmostratsiyalashtirish usulini ommaviy bayramlarga qo'llash yaxshi natija bermaydi, lektsiya yoki suxbatni teatrlashtirishning xojati bo'lmasa kerak. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ilmostratsiyalashtirish usulidan tashkil tashkil qilishi oson, har kuni foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Teatrlashtirish usulini buyuk sanalarga va bayramlarga bag'ishlangan tadbirlarda qo'llash lozim.

Yuqorida qayd qilingan ijtimoiy madaniy faoliyatning usul vositalari, shakllari, tamoyillari va xususiyatlari orqali “Zamon qahramoni” obrazini targ’ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan;

- Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yana bir xususiyati ular, asosan, maxalliy axoli uchun, ularning real hayotidan olingan materiallar asosida tuziladi. Tadbirlarning bosh kahramoni sifatida muayyan joyda mexnat kilib, maxalliy axoli orasida namuna bulayotgan kishilar namoyon buladi. Masalan, «Xotira va kadrlash kuni»ga bagishlangan bayramni olaylik. Bunda maxalliy joyda yashaydigan urush katnashchilari, mexnat faxriylarining kursatgan jasoratlariga asosiy urgu berilishi kerak.

- NAMUNA USULI orqali mustaqil yurtimizning eng yaxshi fazilatlari tarannum etiladi. Yaxshi o’qiyotgan. Yaxshi ishlayotgan namuna ko’rsatayotganlardan o’rnak olishga undaydi.

- «zamonamiz qahramoni» obrazini hududdagi real shaxslar timsolida yaratish orqali ibrat omilini keng targ’ib etish;

- TANQID QILISH USULI, pedagogikada bu usul jazolash deb xam yuritiladi. Jazolash usuli muntazam ishlaydigan jamoalarda: ishlab chiqarishda, o’quv yurtlarda qo’llaniladi. Madaniy-ma’rifiy tadbirlar vaqtincha yig’ilgan auditoriya bo’lgani uchun unda tanqid qilish usulidan o’zigan xos yo’l bilan foydalaniladi. Tanqid ob’ektiga xayotning rivojiga xalaqit beruvchi barcha «Salbiy qaxramonlar» kirishi mumkin. Tadbirlarda ularning satira va yumor orqali tanqid qilinishi ularning omma orasida fosh etilishi, birinchidan, ularni o’zi xaqida chuqur oylashga olib keladi, ikkinchidan, kishilari bundaylarga qarshi kurashishiga undaydi.

X U L O S A

Madaniy dam olish insonning bo'sh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega bo'lishda ma'naviy- estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sog'lom bo'lishida muhim omillardan hisoblanadi. Dam olishning bunday shakliga keyingi vaqtda juda katta e'tibor berilmoqda. Bu esa o'z navbatida dam olish madaniyatini yuksaltirish imkonini bermoqda.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad — kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlash bilan birga, ularni har tomonlama ravnaq topishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Sotsiologlarning hisob-kitoblaricha, asosiy ishdan tashqari shug'ullanish mumkin bo'lgan faoliyat turlari 500 taga yetar ekan. Ularga zaruriy vaqtdagi yumushlar ham kirib, soch oldirishdan hammomga tushishgacha, davolanishdan mehmondorchilikka borishgacha, tomorqa uchastkalardagi ishlardan uy hayvonlarini parvarishlashgacha, uyni ta'mirlashdan to baliq ovigacha bo'lgan faoliyatlar ham kiradi. Bo'sh vaqt faoliyatlarining 150 tasidan dam olish faoliyati sifatida foydalansa bo'lar ekan (ularning asosiy guruhlariga uzluksiz bilim olish va malaka oshirish, jamoat ishlari, havaskorlik ijodi bilan shug'ullanish, sport bilan mashg'ul bo'lish, do'stlar bilan o'zaro muloqotda bo'lish, san'at asarlaridan bahramand bo'lish va hokazolar kiradi).

Madaniy dam olish va bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning turlari va imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ularni maxsus turkumlash kerak bo'ladi.

Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish va madaniy dam olish shakllarini shartli ravishda turkumlarga bo'lish mumkin. Har bir turkumda dam olish shakllari murakkablashib, samaradorligi ortib boradi.

Birinchi turkumga dam olishning eng oddiy shakllari — kam harakatli hordiq chiqarish charchoqni tarqatish faoliyatlari kiradi. Bunday passiv dam olishga ishdan keyin karavotda yotib charchoq chiqarish, ko'cha, parklar, xiyobonlardagi o'rindiqlarda, uyda divan, stulda o'tirib hordiq chiqarish, ochiq havoda sayr qilish, mehmonga borish kabilar kiradi. Bu hordiq chiqarishni ba'zida

«faoliyatsiz dam olish» ham deyishadi. Vaqti-vaqti bilan shunday «passiv» dam olib turish ham kerak. Lekin asosiy maqsad passiv dam olishga vaqtni kamroq sarflab, ko‘proq vaqtni aktiv dam olishga qoldirish darkor.

Ikkinchi turkum dam olish shakllari madaniy-ma’naviy boyliklarni egallash, ya’ni kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish, radio va televideniye dasturlarini tinglab, tomosha qilish, teatr, kinoteatrlarda namoyish etiladigan kinofilm, spektakl va badiiy-ommaviy sahnalarni tomosha qilish kabilardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A., Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch, T., 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent: O'zbekiston, 1996, 1-tom
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent: O'zbekiston, 1996 y. 2-tom.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: O'zbekiston, 1996 y., 3-tom.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Toshkent: O'zbekiston, 1996,4-tom.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatilari. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash –davr talabi. Toshkent: O'zbekiston, 1996,5-tom.
9. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida Toshkent: O'zbekiston, 1998, 6-tom
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda Toshkent: O'zbekiston, 1999.
11. Karimov I.A Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent: O'zbekiston. 1994.
12. Karimov I.A Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. Toshkent: O'zbekiston. 1998.
13. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: O'zbekiston. “Sharq” 1999.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda
“2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini
mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari
dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 322-sonli Qarori
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-
sonli qarori

16. Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. – T., 2007.
17. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. –T.: G‘.G‘ulom, 2002.
18. Jabbarov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994.
19. Istiqlol va milliy teatr. Farmonlar, qarorlar, nutqlar to‘plami. -T., 2002.
20. Karabayev U.X. Etnokultura. – T., 2005.
21. Shodiyev B. Maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari. //Doktor. diss... –T., 2007.
22. O‘zbekiston san’ati (1991-2001 yillar). O‘zbekiston badiiy akademiyasi san’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti. –T.: Sharq, 2001.
23. Qoraboyev U.H. Madaniy tadbirlar. -T.: O‘qituvchi, 2003.
24. Qoraboyev U.H. O‘zbek xalqi bayramlari. – T., 2002.
25. Abduraximov T., O‘zbek xalq o‘yinlari va tomoshalari, T., 1997.

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.philosophy.ru.
3. www.history.ru.
4. www.gov.uz - Hukumat sayti.
1. www.press-service.uz - Prezident sayti.
2. www.ziyo.edu.uz - Vazirlik sayti.